

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI
VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI

“XALQ IJODIYOTI” FAKULTETI

“IJTIMOIY MADANIY FAOLIYAT” TA‘LIM YO‘NALISHI

“MADANIYAT VA SAN‘AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA
BOSHQARISH” KAFEDRASI

“YOSHLAR TARBIYASIDA – MADANIY TADBIRLARNING O‘RNI
VA ROLI”

MAVZUSIDAGI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Bitiruv malakaviy ish kafedrada
dastlabki himoyadan o‘tdi”

“Madaniyat va san‘at
muassasalarini tashkil etish va
boshqarish” kafedrasining ____ -
sonli yig‘ilish bayonnomasi

“ ____ ” _____ 2014 yil

Kafedra mudiri _____

X.Shodiyev

Bajardi: “Ijtimoiy madaniy faoliyat”
ta‘lim yo‘nalishi IV-kurs bitiruvchisi

Muhamedsaidov Iskandar Ma‘murjon

o‘g‘li

Ilmiy raxbar: Katta o‘qituvchi
V.Rustamov

Toshkent-2014 yil

MUNDARIJA

KIRISH	2
---------------------	----------

I bob. O'zbekiston xalqlari tarixida madaniy tadbirlar va xalq marosimlarining tutgan o'rni.

1.1.Madaniy tadbirlarni kelib chiqishi va ularning tarixi	4
1.2.Madaniy tadbirlarning jamiyatda tutgan o'rni.....	8
1.3.O'zbekistonda Mustaqillik yillarida shakllangan madaniy tadbirlar.....	11

II bob. Ma'naviyatni yuksaltirish va yosh avlodni tarbiyalashda yo'naltirilgan davlat siyosati.

2.1.O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ma'naviy-madaniy tadbirlar ahamiyati	13
2.2.Jamiyatda yoshlar faolligi oshirishda xizmat qiluvchi tadbirlar.....	30

III. bob. Madaniy tadbirlarning shakllari, turlari va ularni tashkillashtirish.

3.1.Madaniy tadbirlarning shakllari va turlari	48
3.2.Madaniy tadbirlarni tashkillashtirish	62

Xulosa	75
---------------------	-----------

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yhati	77
---	-----------

Kirish

Bitiruv malakaviy ishi mavzuining dolzarbligi. Yurtboshimizning ¹“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarlarida: - “Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o’z oldiga ezgu va ulug’ maqsadlar qo’yib, tinch-osoyshta hayot kechirayotgan, avvalambor, o’z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo’lida ulkan natijalarni qo’lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz. Biz o’z taqdirimizni o’z qo’limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday oliyjanob intilishlar bilan yashaganimiz, erishiyotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani – bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Madaniyat va ma’naviyat islohatlarini yoshlar tarbiyasiga ijobiy singdirish borasida olib borilayotgan ishlarni olib borish, hamda milliy qadriyatlarimizni qadriga yetish.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishi mavzusi muayyan darajada amaliy ahamiyatga ega bo’lib, quyidagi jihatlari mavjud. Ma’naviy - madaniy faoliyat negizlaridan birini tashkil etuvchi omil, bu tarbiyadir. Shuning uchun yoshlar ma’naviyatini yanada barkamollashtirib, asosiy masalalar qatoriga qo’yilgan. Bugungi kunda madaniy tadbirlarning turli xil qirralarini yaratish uchun juda katta imkoniyatlar yaratilmoqda.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Madaniy tadbirlar faoliyati, tarixi, yoshlar ma’naviyatiga oid bir necha o’quv qo’llanmalari, ilmiy maqolalar yozilgan. Biroq, ma’naviyatni anglash orqali yoshlarni tarbiyalashda san’at va madaniyatning roli to’liq ochib zikr qilinmagan. Shuning uchun bu mavzu hali ko’p tadqiqotlar o’tkazishni talab qiladi

Tadqiqotning predmeti va ob’ekti. Bitiruv malakaviy ishining predmeti sifatida Prezidentimizning madaniyatimiz va ma’naviyatimiz yuksalishi yo’lida yozgan asarlari, hamda madaniyatshunoslik, madaniy tadbirlar kabi o’quv uslubiy qo’llanmalar va kitoblardan olindi. **Uning ob’ektini** yoshlar tarbiyasi tashkil etadi.

Tadqiqotning nazariy – metodologik asoslari. Prezidentimiz I.A. Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”, A.Mavrulovning “Barkamol avlod inson tarbiyasi”, U.Qoraboevning ”Madaniyat masalalari” kabi asarlari madaniyat va san’at to’g’risidagi ta’limotiga asoslangan.

Tadqiqotning o’rganilganlik darajasi. Madaniy tadbirlar yoshlar tarbiyasiga ta’siri davr talabi. Madaniy tadbirlarga bo’lgan talab ham, bugungi kun masalalaridan hisoblanib, uni yanada rivojlantirish orqali madaniyat mussasalarining faoliyatini yaxshilash, va samarali yo’lga qo’yish borasida Respublikamizdagi olimlar A. Mavrulov, U. Qoraboev, M. Bekmurodov ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining tuzilishi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusining tuzilishi. Kirish, uch bob, yetti paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

I bob. O'zbekiston xalqlari tarixida madaniy tadbirlar va xalq marosimlarining tutgan o'rni

1.1. Madaniy tadbirlarni kelib chiqishi va ularning tarixi

Tadbirlar insonning tabiiy ehtiyoji asosida muhim mashg'ulot sifatida eng qadimgi davrlarda paydo bo'lgan. Kishilarning tabiiy ehtiyoji asosida ongli mehnat qilishi muayyan tadbirlardan foydalanishni taqozo etgan, Hayotiy tajribalar asosida tadbirlarning turlari shakllangan. Chuqur ma'noli va shaklan madaniylashgan tajribalar odatlarga aylangan. Muhim ahamiyat kasb etgan odatlar asosida marosimlar paydo bo'lgan. Jamoa hayotida xursandchilik bilan o'tadigan voqealar zamirida bayramlar shakllangan. Shunday qilib, tadbirlarning turli darajalari va shakllari paydo bo'la boshlagan. Eng qadimgi mashg'ulotlar bilan bog'liq an'analar, jumladan, terimchilik odatlari (tabiiy oziq-ovqat yig'ish tajribalari, musobaqa o'yinlari), ovchilik o'yinlari (ov oldi mashq-o'yinlari, ovdan so'nggi marosim tomoshali o'yinlar). Chorvachilik udumlari, (yovvoyi hayvonlarni ovlash va qo'lga o'rgatish. Uy hayvonlarini parvarishlash, qishga go'sht tayyorlash odatlari), dehqonchilik odatlari (bahorda ekin ekish, kuzda hosil yig'ish marosimlari). ilg'or ish tadbirlaridan samarali foydalanishga imkoniyat yaratgan.

Mehnat (terimchilik, ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik) tadbirlari ish jarayoning muhim qismi sifatida tashkil qilinsa, madaniy tadbirlar ko'proq odamlarning bo'sh vaqtida, dam olish shakli sifatida uyushtiriladi.

Eng qadimiy odamlarning turmushi bilan bog'liq an'analar, jumladan, jamoa (to'da) bo'lib yashash udumlari, sardorlik (oqsoqollik) uchun olishuvlar, imitatsiya (bolalik, o'spirinlikdan erkaklikka o'tish) marosimlari, turli ko'rinishdagi dafn odatlari, qurbonlik marosimlari, organistik bayramlar, oila va to'y marosimlarining poydevori bo'lgan *poligam*, *egzogam*, *monogam* odatlari kabilar ibtidoiy jamoa taraqqiyotida jiddiy rol o'ynagan. Ular ibtidoiy odamlarning mashaqqatli hayotida erishilgan tajribalar, yutuqlarni asrash va ko'paytirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Ibtidoiy taraqqiyot davomida odamlarning yashash uchun kurashi, ongli mehnat qilishi jarayonida tajriba, ko'nikmalarni ortishi; kshilarning moddiy-ma'naviy ehtiyojlarini o'sib borishi; ularning tabiat sirlarini anglash jarayonida turli tushuncha tasavvur e'tiqodlarini paydo bo'lishi; mehnat taqsimoti natijasida turli mehnat sohalarini taraqqiy etishi; odamlar, qabilalar, urug'. jamoalar o'rtasidagi munosabatlarni takomillashishi insoniy an'analarning vujudga kelishida muhim omillar sifatida xizmat qilgan.

Qadimdan boshlab odamlarni hayot, tabiat sirlarini tushunishga intilishi natijasida, ularning ongida turli tasavvurlar, jumladan, fetishistic, totemistik, animistik, politeistik, magik kabi e'tiqodlar paydo bo'ldi. Qadimiy odamlarning tushunchalari, odat va marosimlarida (chunonchi, "yomg'ir tilash", "shamol chaqirish", "quyoshga sig'inish", "qurbonlik qilish" marosimlarida) o'z aksini topib, ular Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va ma'naviyatining shakllanishiga hissa qo'shgan.

Shunday qilib, ibtidoiy davrda ilk madaniyat shakllari – "Ovchilik o'yinlari", "Zoafagik bayramlar", "Magik marosimlar", "Imitatsiya tadbirlari", "Organistik bayramlar" va boshqalar paydo bo'lgan. Bunday tadbirlar ilk madaniyat va ma'rifat maskanlari: "Jamoat uylari", "O'spirinlar uylari", "Erkaklar uylari", "Quyoshgohlar" ("Quyosh uylari") kabi joylarda ham o'tkazilgan.

Markaziy Osiyo xalqlari an'alarini shakllanishida zardushtiylarining dualistic qarashlari alohida ajralib turgan. Ularning tabiat, turmush va mehnat jarayoni bilan bog'liq bo'lgan an'ana, marosim va bayramlar tizimi (Navro'z, Mehrjon, Sada, Angom kabilar)da yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va qorong'ulik, issiqlik va sovuqlik, o'lim va hayot o'rtasidagi ziddiyatlar aks etib, bu davr odatlarida ezgulik, mehribonlik, muruvvatlik, qadr-qimmat, insoniylik kabi ma'naviy-insoniy fazilatlar qadrlana boshlagan.

Ajdodlarimiz e'tiqodi asosida vujudga kelgan zardushtiylik dini tarixda qoldi. Biroq bu dinga xos ko'pgina odatlar, bayramlar, rasm-rusumlar hozirgi paytgacha ham saqlanib kelgan. Albatta, ular ichida eng kattasi Navro'z bayramidir. Shu bilan birga kasallikning oldini olish yoki undan saqlanish uchun isiriq tutatish, turli

marosimlarda sham yoqish, to'ylarda gulxan atrofida aylanish, o't atrofida kechki bazmlar uyushtirish, chavandozlarning katta gulxan alangasi ustidan sakrash o'yinlari, ba'zi bemorlarning shifo toppish maqsadida gulxan ustidan hatlab o'tishlari, chaqaloqni olov ustidan o'tkazib olish, muqaddas daraxtlar shoxiga turli lattalardan "alam" bog'lash kabi udumlarni hozir ham uchratish mumkin. Quyoshni ozodalik bilan kutib olish, tongda hovlini tozalash, uyni supurish, yuvinish, o'choqqa olov yoqish, olov yordamida oziq-ovqatlarni zararsizlantirish, kul, turli giyohlarni tutatish kabilar ham zardushtiylardan o'tib kelayotgan odatlardir.

O'rta Osiyo xalqlarida koinot, tabiat, yil fasllari bilan bevosita bog'liq muayyan tizimdan iborat bayramlar, jumladan, bahorgi «Navro'z»ni, yozda nishonlanadigan «Angom hayit»ni, kuzda o'tkaziladigan «Mehrjon», qishda uyushtiriladigan «Sada» kabilarni hozir ham yil fasllariga bag'ishlangan bayramlar sifatida muntazam o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Markaziy Osiyoga VIII asrdan boshlab islom dini bilan birga musulmon odatlari, jumladan, islom dini asoslari - «arkon ad-din» besh amaliy va marosimchilik rukuk - «Qurbon hayit», «Mavlud», «Meroj». «Ashuriy», «Laylat ul-qadr» kabilar joriy qilinib, ularning asosiy maqsadi – Muhammad payg'ambar va islom dinini ulug'lash bo'lsa ham, ularning mazmunida insoniylik, oliyanoblik, saxiylik, rahmdillik, mehr-muruvvatlilik kabi g'oyalar targ'ib qilinadi. Islomgacha mavjud bo'lgan odatlarning muayyan qismi islom odatlariga chatishib ketadi va ular ham odamlar o'rtasida mehr-oqibat, izzat-hurmat, qadr-qimmat, muruvvat, oqibat kabi insoniy fazilatlarini ravnaq topishida xizmat qiladi.

O'rta asrlarda, ayniqsa, IX – XII asrlar va XIV – XV asrlarda bayram-marosimlar juda katta tantanalar bilan nishonlangan. Bu davrda o'lkada islom diniga xos «Ro'za hayit», «Qurbon hayit», «Ramazon» kabi bayramlar xalq hayotidan o'z o'rnini topdi, ularni tashkil qilish uchun «Namozgoh», «Iydgoh», «Musalla-iyd» kabi shahardan tashqari maskanlar barpo etilgan.

Xalqning qadimiy bayramlari («Navro'z», «Sada», «Mehrjon») o'rta asrlar boshida saqlangan bo'lsa-da, keyinchalik din arboblarning bu bayramlarni o'tkazilishiga qarshi kurashi natijasida ular o'z mavqeini yo'qota boshlagan.

Davlatchilik rivojlanishi natijasida hukmdorlar hayoti bilan bog'liq to'ylar, uning farzandlari va nevaralari hayoti bilan bog'liq marosimlar va davlat miqyosidagi ijtimoiy-siyosiy voqealar bilan bog'liq bayramlarni o'tkazish keng yoyilgan.

Temuriylar davrida o'lkamizda madaniyat ravnaq topib, bayram-marosimlar keng rivojlangan. XVI-XIX asrlarda esa tez-tez urushlar bo'lishi, xonlik va beklklarga bo'linishi bayram, marosimlar o'tkazilishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi.

O'lkada Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari yuzaga kelishi natijasida, bu hududlarda o'tkaziladigan bayramlarda ayrim o'ziga xosliklar paydo bo'lgan bo'lsa-da, bayramlarga xos umumiy jihatlar saqlanib qolavergan. Amir va xonlar xalq o'rtasida o'z obro'yini ko'tarish maqsadida bayramlarga alohida e'tibor berib, o'z manfaatiga mos keluvchi g'oyalarni bayram tomoshalariga singdirishga harakat qilishgan.

XVI – XIX asrlarda o'lkaning ziyolilari, san'atkor va shoirlari xalq bayramlarini keng targ'ib qilgani tufayli xalqimizning go'zal bayramlari saqlanib qolgan.

1.2. Madaniy tadbirlarning jamiyatda tutgan o'rnini.

O'rta Osiyo xalqlarining an'ana va bayramlari tabiat o'zgarishlari, iqlim, yil fasllari, aholining turmush sharoiti, mehnati, madaniyati asosida shakllanib, rivojlanib borgan uchun har faslga mos, ya'ni erta bahorda – mehnat mavsumiga kirishdan oldin (Navro'z, Gul sayli, Shox moylash), yozda – hosilni yig'ishtirishdan oldin (Suv sayili, Choy momo, Shamol chaqirish) kuzda – hosil yig'ib olinganidan so'ng (Xirmon to'yi, Qovun sayili, Uzum sayili) va qishda – chorvador-dehqonlarda bo'sh vaqt ko'payganida (Qorxat, Yasan-tusan, Gap-gashtak, Qurultoy) kabi mavsumiy marosim va bayramlar o'tkazilgan. Shuningdek, o'rta asrlarga xos madaniy-ma'rifiy tadbirlar: «Munozara», «Kitobxonlik», «Mushoira», «Baxru-bayt», «Aytishuv», «Bahslashuv», «Kitobxonlik», «Dostonxonlik», «Ertakxonlik», «Qasidaxonlik», va hokazolar. Xalq tadbirlari: «Gul sayillari», «Navro'z», «Qush oshi», «Tut sayili», «Tok oshi», «Qovun sayili», «Uzum sayili», «Xirmon to'yi», «Qorboshi», «Gap-gashtak», «Qurultoy», va boshqalar paydo bo'lgan.

Ayniqsa, «Mushoira», «Munozara», «Bahrubayt», «Aytishuv», «Bahslashuv», kabi tadbirlar keng tarqalgan. Mushoira – she'riyatning o'ziga xos bahs-musobaqa janri sifatida namoyon bo'ldi. Mushoira og'zaki yoki yozma tarzda yaratilib, xalq ijodiyotida ham keng tarqalgan. Mushoiraga monand janr boshqa xalqlarda, masalan, qozoq va qirg'izlarda «aytishuv»lar ham bo'lgan.

Odatda, mushoira ijodiy hamkorlikning bir ko'rinishidir, Bu janrda ikki yoki undan ortiq shoir she'r aytishadi, ijodiy musobaqalashadi. She'r bir mavzu, bir vazn bir xil qofiya tartibida bo'lib, ular g'oyaviy-estetik va poetic jihatdab uzviy birikadi va yaxlita asarni vujudga keltiradi. Firdavsiyning mashhur qalamkashlar – Unsuriy, Asjadiy va Forruxiy bilan mushoira qilib, g'olib chiqqani haqida rivoyatlar bor. Go'yo shu mushoiradan keyin Firdavsiy «Shohnoma»ni yozishga kirishgan ekan.

Mushoira she'rxonlik, adabiyotchilar yig'in-tadbiri ma'nosida ham ishlatiladi. Bunday mushoirada bir necha shoirlar aniq bir mavzu (masalan, bahor)ga bag'ishlab, navbat bilan she'rlar o'qishgan.

O'zbek xalq an'analarining muhim qismini vujudga keltirilgan mavsumiy odatlar ijtimoiy taraqqiyot jarayonida jamiyatini moddiy-ma'naviy kamol topishida zaruriy omil sifatida namoyon bo'ladi. Chunki, o'zbek xalqi va uning ajdodi istiqomat qilgan hududning geografik o'rni, tabiati, yil fasllari, kabilarning o'ziga xos xususiyatlari asosida mavsumiy odat, bayram va marosimlar vujuga kelib, ular mahalliy aholining tafakkuri, xarakteri, idroki, his-tuyg'ulari, irodasi, qobiliyatlarini shakllanishida muhim o'rin tutadi. Mavsumiy an'analar shakllanishida mahalliy aholi istiqomat qiladigan tabiiy sharoiti, iqlimi bilan bog'liq bo'lgan moddiy madaniyati, mehnat tajribalari, ekologik ongi, xalq e'tiqodlari, xalq ijodi, turmush madaniyati kabi ma'naviy sohalar katta rol o'ynaydi.

O'zbek xalqining eng muhim ma'naviy qadriyati sifatida har faslga mos an'analar tizimi shakllanib, ular orasida erta bahorda – mehnat mavsumiga kirishdan oldin, yozda – hosil yig'ishdan oldin, kuzda – hosil to'plangandan so'ng va qishda – dalalar «uyquga ketib», mehnatkashlarning bo'sh vaqti ko'payib, madaniy dam olish ehtiyoji qondirilganda uyushtiriladigan odat, marosim, bayramlar mehnatkashlar hayotida muhim hodisa hisoblangan. Asrlar davomida avloddan – avlodga o'tib, an'anaga aylangan: bahorgi - «Qurultoy». «Gul bayramlari», «Navro'z», «Darvishona», «Qo'sh oshi» (Shoxmoy), yozgi - «Suv sayili», «Choy momo», kuzgi – «Anjir sayili», qishki – «Yasan-tusan», «Gap-gashtak», «Qorxat» kabi marosim va bayramlar dehqonlar hayoti, turmushi, mavsumiy mehnat jarayonida va ma'naviy olamida samarali shakllar bo'lib, ularning mazmuni yoshlarning ekologik ongini ravnaq toptirish, tabiat boyliklarini qadrlash, yil fasllarida vujudga keladigan go'zalliklardan zavqlanish, mehnatni qadriga yetish, insoniylikni ulug'lash kabi funksiyalarni bajarishda yaxshi xizmat qilgan.

Xalq an'analari orasida mustahkam ma'naviy zaminga ega bo'lgan oilaviy marosimlar yoshlarni ahloqiy fazilatlarini kamol toptirishda muhim o'rin tutadi. Asrlar osha shakllangan o'zbek xalq oilaviy marosimlarining asosiy mohiyati – inson va oila hayotidagi eng muhim, yirik hodisalarni nishonlash, ularni tashkil qilish jarayonida ahillik, imon-e'tiqod, izzat-ikrom, mehr-oqibat, odob-ahloq,

mehmonnavozlik, birodarlik kabi insoniy fazilatlar namoyon bo'ladi. O'zbek oilalarida chaqaloq tug'ilganidan, to u ulg'ayib, yangi oila qurgunga qadar sodir bo'ladigan muhim voqealarni qayd qiladigan marosimlar tizimi vujudga kelgan. Mazkur tizimga kirgan «Chaqaloq dunyoga kelishi», «Ism berish», «Chaqaloq chilla», «Beshik to'y», «Soch to'y», «Tish to'y», «Birinchi qadam», «Sunnat to'y», «Muchal to'y», «Nikoh to'y» kabilar yosh avlodni rivojlanishi va ma'naviy kamol topishi uchun o'ziga xos ma'naviy «zina»dir.

Oilaviy marosimlar xalq pedagogikasi va xalq donishmandligi bilan uyg'unlashib, asrlar davomida yoshlar tarbiyasining asosiy shakllaridan biri bo'lib kelgan. Oilaviy marosimlar mehribonlik, mehmondo'stlik, oliyjanoblik, qardoshlik, inoqlik kabi xislatlar va vujudga keladigan yaxshi ruhiy-ahloqiy holat yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi. Shuningdek, oilaviy tadbirlar tasarrufida avlodlardan avlodga o'tib, tarix sinovlaridan bardosh bergan rang-barang xalq odatlari, folklore janrlari (o'lan, lapar, yor-yorlar, marosim qo'shiqlari), raqslar, o'yin-musobaqalar, to'y olqishlari, duolari kabilardan samarali foydalanish – yoshlarni ma'naviy barkamol fazilatlarini tarbiyalash ishlarida katta ahamiyatga egadir.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Chor Rossiyasi o'z siyosati bilan birga, bu yerga o'z madaniyatini ham olib kirishga intildi. Sovet hokimiyati davrida barcha millat kishilarini yagona sovet xalqiga aylantirish maqsadida milliy ong, xalq an'analari, ma'naviy qadriyatlarga qarshi norasmiy kurash olib borildi. Natijada, o'zbek xalq an'anaviy madaniyati ham o'z «tomirlari»dan uzilib qoldi. Xalq an'analarini ta'qiblash «to'lqinlari» vaqti-vaqti bilan kuchayib turardi. Uning birinchi «to'lqini» oktabr to'ntarishi natijasida sho'rolar hokimiyatga chiqqanidan so'ng – 1920-yillarda, ikkinchisi qatag'on davri – 1930-yillar o'rtalarida, uchinchisi II jahon urushidan so'ng 1950-yillarda, to'rtinchisi «sovuq urush» davri – 1970-yillarda, beshinchisi, Mustaqillik arafasi – 1980-yillar oxirida sodir bo'ldi. Xalqning an'anaviy bayramlari rasmiy davlat bayramlariga kiritilmay, ta'qiqlandi. Sho'rolar davrida «jonli gazeta», «og'zaki jurnal», «agit tomosha», «teatrlashtirilgan karnaval», «agit

sud», «Ommaviy tomosha», «Agritbrigada chiqishlari», «miting – konsert» kabi tadbirlar mashhur bo'lgan.

1.3.O'zbekistonda Mustaqillik yillarida shakllangan madaniy tadbirlar

Mustaqillik tufayli o'zbek bayramlari tarixida yangi sahifa ochildi. Bu davrda milliy an'analarni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, xalqimizning tarixiy merosi bo'lgan an'analar («Navro'z», «Ro'za hayit», va «Qurbon hayit»lar) rasman tiklandi, istiqlolning yangi bayramlari («Mustaqillik kuni», «Konstitutsiya kuni», O'qituvchilar va murabbiylar kuni», «Xotira va qadrlash kuni» kabilar) joriy etildi, umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi bayramlar («Yangi yil bayrami», «Xotin-qizlar bayrami» kabilar) saqlanib qolindi, jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan ajdodlarimiz tavalludlarini nishonlash, xalqaro anjumanlar ham xalqimizning bayramlariga aylanib kelmoqda.

Istiqlol yillarida Zahiriddin Muhammad Bobur (1993), Feruz (1995), Bahouddin Naqshbandiy (1995), Mirzo Ulug'bek (1994), Najmiddin Kubro (1994), Amir Temur (1996), Imom al-Buxoriy (1998), Ahmad Farg'oniy (1998), Jaloliddin Manguberdi (1999), Kamoliddin Behzod (2000), al-Marg'inoniy (2000) va Moturidiy (2000) kabi buyuk ajdodlarimiz tavalludining yirik sanalari YUNESKO bilan hamkorlikda nishonlanishi yaqqol misoldir.

Qadimiy obidalarining keng ko'lamda ta'mirlanishi, Buxoro, Samarqand, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlarda, Quva, Chelak tumanlarida yangi me'moriy yodgorliklarning bunyod etilishi, Buxoro, Xiva, Termizning 2500 yilligi va Shahrisabzning 2700 yilligi tantanalarining nishonlanishi yurtdoshlarimizni ham, mamlakatimizga kelgan mehmonlarni ham qoyil qoldirgan.

Istiqlol tufayli xalqimizning ma'naviy qadriyatlari jahon miqyosida e'tirof etila boshladi. O'zbek musiqasi, teatri, kinosi, tasviriy san'ati hozirgi kunda ham jahon jamoatchiligini qiziqtirmoqda. Xalq ijodiyotining buyuk namunasi – «Alpomish» dostoni yaratilganligining ming yillik tantanasi, tarixiy merosimiz «Avesto»ning yaratilganiga 2700 yilliligi o'ld tantanalar ajdodlarimizning bebaho merosiga

qiziqishimizni yanada oshirdi. Shuningdek, Vatanimizda «Toshkent kino festivallari», «Navro'z» va «Sharq va G'arb» xalqaro teatr festivallari, tasviriy san'at bo'yicha xalqaro ko'rgazmalar, xalq ijodining turli janrlariga bag'ishlangan ko'rik-tanlovlar o'tkazish an'anaga aylanmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida yangicha madaniy tadbirlarning kuchayishi musiqa san'atini rivojlantirishda alohida o'rin egallay boshlagan «O'zbekiston – Vatanim manim!» nomli respublika ko'rik tanlovi, yilning eng yaxshi ijodkorini aniqlashga xizmat qiluvchi «Ofarin» tanlovi, yosh iste'dodlarni rag'batlantiruvchi «Nihol» tanlovi kabi anjumanlar shuhrat topmoqda. Xalq ijodining alla, yalla, lapar, askiya, katta ashula, dorbozlik, qo'g'irchoqbozlik kabi ko'plab janrlari hamda etnografik folklor, ashula va raqs jamoalarining tanlovlari ravnaqiga keng yo'l ochib bermoqda.

O'zbek madaniyatiga bag'ishlangan xalqaro anjumanlar xalqimizning badiiy merosini va zamonaviy yutuqlarini vatanimizda va xorijda targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda bayramlar o'tkazish borasida ibratli ishlar qilinmoqda. Yirik bayramlar («Mustaqillik», «Navro'z»)ni tashkil qilish borasidagi tajribalarimizdan qo'shni mamlakatlarda ham foydalanishayotganligi juda quvonchli holdir.

II bob. Ma'naviyatni yuksaltirish va yosh avlodni tarbiyalashda yo'naltirilgan davlat siyosati.

2.1.O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ma'naviy-madaniy tadbirlar ahamiyati

Ma'naviy barkamol inson tarbiyasi .Odamzod paydo bo'libdiki, bir narsaga javob izlaydi: biz kimmiz? Men kimman? Atrofimdagilar kim? Biz nimalarni bilamiz-u, nimalarni bilmaymiz? Bilgan narsalarimiz bizga nima beryapti, nimaga muhtojmiz? Ehtiyojimiz nima va uni qanday qondirishimiz mumkin?

Bu savollarga ming yillar davomida javob qidirildi, qidirilmoqda. Insonni baxtli qilishning, uning og'irini yengil qilishning, irqiy, siyosiy kelishmovchiliklardan asrab qolishning qanchadan-qancha yo'llari, konsepsiyalari, vositalari ishlab chiqildi, diniy, dunyoviy ta'limotlar yaratildi, dissertatsiyalar himoya qilindi.

Biroq shubhasiz, insoniyat taraqqiyotiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan o'sha yangiliklaru ta'limotlarga qaramasdan, ilm-fan, madaniyat rivojlangan uchinchi ming yillikning boshida ham urushlardan jabr ko'rayotgan, qiyinchiliklarga duchor bo'layotgan baxtsiz insonlar hali ham bor. Boz ustiga bunday illatlar yangi shakl va mazmunda yana paydo bo'lishi davom etmoqda.

Eng achinarlisi shundaki, ilm-fan, madaniy rivojlanish taraqqiyoti kuchaygan sari insonni tarbiyalash, uning qalbini davolash zaruriyati shunchalar dolzarb bo'lib bormoqda. Voqealar ummonida o'zini "yo'qotib qo'ymaslik" zarurato tobora kuchliroq sezilmoqda. Ana shunday sharoitda faqatgina o'z fikri, tafakkuri, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini asosida rivojlantirishga harakat qilgan inson, xalqgina o'zini asrab qolishi mumkin. "Chunki hozirgi davrda – Yurtboshimiz, xalqaro maydonda turli siyosiy manfaatlar to'qnashayotgan murakkab bir sharoitda faqat o'z fikri, o'z hayotiy pozitsiyasiga ega bo'lgan xalq va jamiyat yengilmas kuchga aylanib, kelajagini o'z qo'li va aql-zakovati bilan qurishga qodir bo'ladi.

Yuqoridagi iqtibosdan har bir inson o'zini-o'zi boshqarishi, o'zining qat'iy fikriga ega bo'lishi lozimligi anglanadi. Haqiqatan ham shunday, insonni qalb va aql boshqaradi. Qalbi xastalangan inson uchun jamiyat manfaatlari, milliy ehtiyojlarining hech bir qizig'i yo'q. Shuning uchun ham Sharqda doimo inson qalbining sofligi muqaddas hisoblanadi. Mutafakkirlarimiz jismoniy o'limdan emas, qalb yarasidan, ahloqiy qashshoqlanishdan qo'rqishgan. Qalb , yurak , din va ilohiyati sof tushunchalar hisoblanadi. Ga'zzoliy kabi allomalar fikricha, qalb inson ichidagi ilohiy sir bo'lib, shu tufayli inson hatto farishtalardan ham yuqori turadi. Qalb narsalarning aks ettiruvchi ko'zgu bo'lib, savob amallar uni nurga to'ldiradi, yomon amallar esa, aksincha, xiralashitiradi.

Demak, insonning tom ma'nodagi mavjudligi, uning qalbida aks etadi. Qalbi nur, ezgulik, yaxshilik, go'zallik bilan to'lgan har qanday insonni mukammallikka intilgan, o'zini yaxshi insonga aylantirishga harakat qilayotgan shaxs sifatida tan olish mumkin.

Shu bilan birga go'zal inson, yaxshi shaxs tarbiyasi faqat uning qalbi bilangina belgilanmaydi. Qalb bilan bab-baravar aqlning o'rni ham juda katta. Aql eng ulug' ne'matlardan biri sanaladi va u insonni doimo anglash, fikrlash, mushohada etish, tafakkur qilishga undaydi.

Masalaning eng muhim jihati shundaki, qalb, yurak, dil, aql bilan uyg'unlashgandagina u tom ma'noda insonga, insoniyatga xizmat qilishi mumkin, zero Arastu ta'kidlagani kabi "aql dil go'zalligi bilan qo'shilsa fazilatga aylanadi, aks holda aql fazilat emas².

Insonda qalb va aql uyg'unligiga erishishning barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni masalasiga Sharqda ayniqsa katta e'tibor berilgan. Buyuk mutafakkir Abu Homid Gazzoliy o'zining "Kimyoi saodat" asarida inson tanasini shaharga o'xshatadi. Uning aytishicha qalb, dil – bu shaharning podshohi.

² A.Mavrulov "Barkamol avlod inson tarbiyasi. Toshkent. 2008 yil.

Nazarimizda, qo'yilgan masalaga bundan ortiq izoh yo'q. Qalb bilan uyg'unlashgan joyda rivojlanish, yaxshilik, ezgulik, go'zallikka intilish bor. Qalb, dil va aql o'rtasidagi kelishmovchilik esa, barcha ziddiyatlar, nohaqliklar, adolatsizliklarning manbaidir. Shubhasiz, ushbu holatda qalb, dil, yurakning o'rni, ahamiyati kattadir.

Buyuk allomalarimiz qayd etganlari kabi insonni, pirovard natijada jamiyatni ma'rifat bulog'idan sug'orishning yo'li shaxsni ma'naviyat, ma'rifatga oshufta qilishdadir. Muammoga boshqacharoq munosabatda bo'ladigan bo'lsak, insonni va jamiyatni turli balo-qazolardan asrashning yagona yo'li qalbni davolash, uni sog'lomlashtirishdir.

Bu yo'lda mamlakatimizda mustaqillik yillarida misli ko'rilmagan katta hajmdagi ishlar bajarildi. Ma'naviyat, ma'rifat davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Muhimi, ushbu haqiqatning rasman e'lon qilinganida emas, balki bu narsaning fuqarolarimiz tomonidan e'tirof etib, tan olinganidandir.

Madaniyatning maqsadi, ijtimoiy funksiyalari o'zgardi. Agar avval madaniyat davlatning, hukmron siyosiy mafkuraning imperiyachilik maqsadlarini amalga oshirish vositasi sanalgan bo'lsa, endi u o'zining mukammalligini ta'minlovchi, millatni birlashtiruvchi, uyushtiruvchi, yagona milliy manfaatga xizmat qiluvchi hodisaga aylandi.

Natijada ma'naviy-ma'rifiy sohada fuqarolarimiz orzu qilgan kunlarga yetdik. Milliy-ma'naviy, tarixiy merosimizni o'zimizga qaytarish imkoniyatiga ega bo'ldik. Millatning mavjudligi uning madaniyatida aks etishi to'g'risidagi haqiqat tom ma'noda qaror topa boshladi. Milliy madaniyatimizning tiklana boshlashi bizning jahon maydonidagi o'rnimizni belgilashga ko'mak bera boshladi. Ushbu ijobiy jarayonlar silsilasida Yurtboshimizning "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014-yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishini alohida ta'kidlash lozim. Ta'bir joiz bo'lsa aytish kerakki, bu hujjat jamiyatni yanada ma'rifatparvarlashtirish, insoniy

fazilatlarga ustuvor tavsif berish, inson qalbida ezgulik, yaxshilik, adolat tamoyillarini qaror toptirishga qaratilgan jiddiy qadamdir.

Shu bilan birga dunyo tobora globallashib borayotgan, barcha sohalarda integratsiya jarayonlari avj olayotgan hozirgi davrda jamiyatimizning ayrim fuqarolarida, ayniqsa, yoshlar ongida kuchli tafakkuriy o'zgarishlar sodir etish o'ta dolzarb bo'lib qolmoqda. Ayrim yoshlarimizda egoism, xudbinlik, jamiyat manfaatlariga bepisandlik kabi illatlarning mavjudligida g'arbning ta'siri kuchayib borayotganligini ham sedan chiqarmaslik muhim, deb o'ylaymiz.

Bunday murakkab sharoitda yoshlar o'rtasida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarimiz samaradorligini oshirishdan ham muhimroq ish yo'q. Buning uchun, eng avvalo, yoshlarimizda o'z ma'naviy qiyofasini boyitishga imkon beradigan sog'lom ehtiyojni shakllantirish o'ta zarurdir.

Sog'lom ma'naviy ehtiyoj inson qalbini nurga, yaxshilik, ezgulikka to'ldiruvchi, uni yomon illatlardan himoya qiluvchi vosita hisoblanadi. Sog'lom ehtiyojni shakllantirish uchun esa, mavjud holatni tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lishimiz lozim. Bunday holatni aniqlash uchun esa, bizning nazarimizda, quyidagilarga e'tibor berish lozim.

Birinchidan, bugungi yoshlarimizning shaxs sifatidagi maqomida qaysi sifatlar ustuvor ahamiyatga ega bo'lmoqda: moddiy boylikmi, amalgam o'tirishmi, bilim olishmi, umumiy madaniy saviyani oshirishmi?

Ikkinchidan, yaratilgan ma'naviy ne'matlar – badiiy asarlar, kino-teatr asarlari, ommaviy axborot vositalari nashrlari yoshlarimizning qiziqishlarini o'rgangan holda taklif etilyaptimi?

Uchinchidan, davlat hokimiyatning turli pog'onalarida, ayniqsa, quyi pog'onalarida yoshlarimizning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish, ularning ma'naviy qiyofasini shakllantirish yo'lidagi faoliyat hozirgi kun talabiga javob bera oladimi?

To'rtinchidan, bozor iqtisodiyoti munosabatlari tabiatidan kelib chiqqan holda jamiyatimiz fuqarolari madaniy saviyasini oshirishga ko'mak berish mumkin bo'lgan homiylik harakatidan qoniqish hosil qilish mumkinmi?

Jamiyat ma'naviy qiyofasini belgilashda, fuqaroning sog'lom ma'naviy ehtiyojini shakllantirishda, shak-shubhasiz, yuqoridagi savollarga berilgan javoblar muhim ahamiyatga ega. Fuqaro ma'naviy ehtiyojini shakllantirish o'ta murakkab va ma'lum vaqtni talab etadi. Buning uchun, eng avvalo, shaxsda o'zini-o'zi rivojlantirishga moyillik bo'lishi lozim. Bu esa, ko'proq oila, mahalla, o'qiyotgasn yoki ishlayotgan bilim yurti, muassasa, tashkilotdagi, umumiy tarzda aytadigan bo'lsak, jamiyatdagi o'rnak va ibrat masalasiga bog'liq. Bu birinchi masala.

Masalaning ikkinchi jihati yon-atrofimizda, dunyoning boshqa mamlakatlarida yoshlarga taqdim etilayotgan turli ma'naviy "ne'matlar" saviyasiga bog'liq. Insonning go'zal fazilatlari, uning muqaddasligini ifoda etuvchi asarlar bilan birga uni kamsituvchi, yerga uruvchi ayrim "asarlar"ning yuzaga kelishi, shubhasiz, fuqaro ma'naviy ehtiyojini vulgarlashtiradi. Bosqinchilik, ur-yiqit, zo'ravonlikni muntazam ravishda "tomosha qiluvchi", "o'qiydigan" kishidan nimani kutish mumkin? Sog'lom ma'naviyat yomon odamni yaxshi odamga, yaxshi odamni esa go'zal xulqli insonga aylanishini ifoda etuvchi ma'naviy boyliklar asosidagina shakllanishi mumkin.

Muammoning uchinchi jihati ham bor. Shu narsa ma'lumki, fuqaroda, pirovard natijada, millatda o'zga shaxs va millatning ma'naviy "boyliklar"ni o'zlashtirishga, ularni "kult" darajasiga ko'tarishga moyillik holatlari mavjud. Buning uchun, avvalo, o'sha shaxs yoki millat madaniyati boshqalar madaniy taraqqiyotidan sustroq bo'ladi. Bo'lak tomondan esa shaxs va jamiyatda o'zini-o'zi rivojlantirishga bo'lgan harakat kam bo'ladi.

Ammo, o'zbek xalqi o'z milliy-madaniy taraqqiyoti bilan jahonda alohida hurmat va e'zozga ega bo'lgan xalq hisoblanadi. Bu – e'tirof etilgan aksioma. Ana shu milliy-madaniy boyliklarni xalqimiz ongi-shuuriga singdirish, ularning qalbiga jo etish asosida millat madaniy-ma'naviy qiyofasini shakllantirish lozim.

Biz ko'pincha sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirish to'g'risida gapiramiz, uning zarurligi asosida o'z mulohazalarimizni beramiz – bu to'g'ri. Ammo yana shu ham ma'lumki, jahon amaliyotida sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirishning umume'tirof etilgan yagona yo'li yo'q. Bunday ehtiyoj, bir tomondan millatning milliy-madaniy tarixiy merosi, jamiyat fuqarolarining mazkur merosga bo'lgan munosabati natijasida shakllansa, boshqa tomondan, davlatning milliy-madaniy merosga, uni fuqarolar tomonidan o'zlashtirishga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

Shu o'rinda bir misol: A. Chexov asarlari 146, A.Pushkin 89, N.Gogol asarlari 68, F.Dostoevskiy asarlari 46, A.Tolstoy asarlari 44 marta ekranlashtirilgan, ularning asarlari asosida badiiy filmlar yaratilgan ekan. Dunyoda asarlari eng ko'p ekranlashtirilgan adib U.Shekspir bo'lib, u 300 tani tashkil etarkan.

Albatta, yuqorida nomlari zikr etilganlarga mumtoz adiblar sifatida butun jahon, jumladan biz ham tan beramiz. Ayni paytda o'zbek xalqining boy madaniy, ilmiy merosini yaratgan, unga asos slogan olimu fuzalolarimiz, mutafakkirlarimiz to'g'risida, ular yaratgan boy ilmiy-madaniy meros haqida biz yosh avlodga berayotgan bilimlarimiz, ularni badiiy obrazlar orqali yetkazib berish darajamiz hozirgi kun talablaridamikin? Shu o'rinda yoshlarimizga ular yosh, milliy xususiyatlari, qiziqishlarini e'tiborga olib, turli mavzularda qiziqarli kitoblar, badiiy, hujjatli asarlar nashr etsak, kinofilmlar yaratsak maqsadga muvofiq bo'lardi.

Qolaversa, biz yoshlarimizda sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirishimiz uchun, ularga milliy-madaniy tariximiz haqida yetarlicha bilim, tasavvurlar berishimiz lozim. Masalan, Zarautsoy (Surxondaryo) qoyatosh suratlari yurtimizda bundan 14-15 ming yil avval ilk san'at asarlari paydo bo'la boshlaganligini, bu madaniyat jahonga mashhur Ispaniyaning Altamira, Fransiyaning Lyasko g'orlari devoriy suratlari qadr-qimmatidan kam emasligini yoshlarimizga bildirishimiz sog'lom ma'naviy ehtiyojning tug'ilishiga qiziqish uyg'otmasdan qolmaydi. Bundan 5 ming yil ilgari ajdodlarimiz bronza metal eritish texnologiyasini o'zlashtirganlar. Mis va qalay yoki mis bilan qo'rg'oshin aralashmasidan bronza metali kashf etganlar.

Bizning ajdodlarimiz sifatli bronza olish uchun mis bilan qo'rg'oshin aralashmasi 9:1 nisbatda, uni yaratish harorati 930-1030 daraja bo'lishini ming yillar ilgari bilganlar.

Buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino o'rta asr musulmon Sharqida, xususan, O'zbekistonning hozirgi hududida 35 ta ilm yo'nalishi mavjudligini ta'kidlab, ularning har biriga tavsif berganlar.

Xo'sh, biz nima uchun bunday misollarni keltiryapmiz? Gap shundaki, ma'naviy ehtiyoj o'z-o'zidan, quruq joyda paydo bo'lmaydi. Qolaversa, o'quvchining oddiy fuqaroning bunday ehtiyojini ma'muriy yo'llar bilan shakllantirish ham mumkin emas. Majburan kitob o'qitish, sahna asarini tomosha qildirish mumkin. Ammo bu yo'ldagi ma'muriy usul o'quvchining ma'naviy ehtiyojini shakllantirishdan ko'ra ko'proq aks ta'sir etishi mumkin.

Shu ma'noda bizning jamiyat a'zolari o'rtasida olib boradigan ishlarimiz, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarimiz o'z maqsad-muddaomizga yetkazyaptimi, ular sog'lom ma'naviy ehtiyojini shakllantirishga xizmat qilyaptimi – buni aniqlash juda muhim. Qolaversa, sog'lom ma'naviy ehtiyoj fuqaroda erkin tafakkur qilish, fikriy mustaqillikka erishishni ta'minlaydi. Bu haqda Yurtboshimiz I.A.Karimov shunday degan edi: “Bu o'rinda gap qandaydir targ'ibot-tashviqot haqida emas, balki odamlarning ko'zini ochib berish, ularning qalbi va ongida mustaqil fikr uyg'otish haqida bormoqda.

Yurtboshimiz ta'kidlagani kabi, olib borilayotgan targ'ibot-tashviqot, ma'naviy-mafkuraviy ishlarimiz aniq maqsadga yo'naltirilmas ekan, undan hech kim, hech qanday naf ko'rmaydi. Fuqaroning qiziqishi, xususiyatlari, yoshi va boshqa jihatlari e'tiborga olinib o'tkaziladigan har qanday tadbir bir tomondan, o'sha shaxsning sog'lom ma'naviy ehtiyojini shakllantirishga xizmat qilsa, boshqa tomondan, uning ma'naviy qiyofasini boyitishga, mustaqil shaxs sifatida tarbiya topishiga imkon beradi.

Darhaqiqat, barkamol inson tarbiyasi, yoshlar qalbida yaxshilik, ezgulik, millat va Vatanga mehr qo'yish sifatlarini shakllantirish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Bemaqsad,

samarasiz yuzlab nafi tegishi mumkin. Buni barchamiz bilamiz. Biroq, tadbirlarimizning besamarligiga yana bir boshqa sabab borga o'xshaydi.

Gap fuqarolarimizning, ayniqsa, yoshlarimizning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda, ular qalbida yaxshilikka oshnolik sifatlarini uyg'otishda mavjud vaziyatni yaxshi anglab yeta olmayotganligimiz haqida ketyapti. Shu o'rinda mamlakatimiz yoshlarining ma'naviy-mafkuraviy xaritasini yaratish maqsadga muvofiq bo'lar edi, deb o'ylaymiz. Ushbu shartli "xarita"da yoshlarimizning yosh xususiyatatlari, qiziqishlari, intilishlari, maqsadlari o'z ifodasini topgan bo'lishi muhimdir. Masalan, qaysi yoshda Alisher Navoiyni talqin qilish haqida o'ylamas ekanmiz va uni keksayu yoshga bir xil tarzda "targ'ib-tashviq" etarkanmiz, unday asar bir toifa odamga bir xil, boshqalarga esa tamomila o'zgacha ta'sir etishi mumkin.

Yoshlar qalbi shakllanayotgan qalb hisoblanadi. Shakllanish jarayoni to'g'ri belgilanmas ekan, bunday vaziyatda insonning virtual dunyoda inson qalbida hali to'la anglab yetilmagan qandaydir g'ayriodatiy o'zgarishlar ro'y beradi, undaylarda turli tubanliklarga tushish erkinlik sifatida tahdid etiladi. Yana shu narsa ma'lumki, virtual dunyoda inson ma'naviy javobgarlikni his etmaydi. Hattoki, mutaxassislarning ta'kidlashicha, virtual dunyo, uning zamonaviy axborot texnologiyalari bag'rida yaratilishi atom bombasining kashf etilishidan ham xavfli. Hozirgi sharoitda ayrim yoshlarimizning virtual dunyoga tushib qolishi, ularning real dunyodan ajralib qolayotganliklarining ikki sababi bor, deb o'ylaymiz: birinchidan, undaylar o'zining mustaqil ma'naviy qiyofasiga ega emas. Natijada "chetda"gi narsalar uni o'ziga tortadi, asta-sekin real dunyodan oyog'I uzilganini sezmay qoladi. Ikkinchidan, bunday toifadagi yoshlarda o'zini-o'zi rivojlantirishga ehtiyoj yo'q, shuningdek, bu narsa ularni moslashuvchanlik, ergashuvchanlik kayfiyatiga tushirib qo'yadi.

Yoshlarimizni virtual dunyoga tushib qolishidan asrash, ularning qalbini ezgulik, yaxshilik urug'lari bilan to'ldirish uchun, eng avvalo, bundaylarni margenallik holatidan chiqarish lozim. Margenallik – ayrim shaxs yoki guruhning jamiyatda

muayyan guruh, tabaqa, qatlamga mansub bo'lmasdan, "chekkada", "oraligda" qolishidir.

Boshqacha so'z bilan aytganda, margenallik holatida u yoki bu shaxs "arosatda" qolishi mumkin. Jamiyat, oila, mahalla ta'siridan "chiqish esa margenallik holatiga tushgan shaxsga beparvolik, uquvsizlik, ijtimoiy hayotdan begonalashuvni yuzaga keltiradi. Bunday holatga tushgan shaxsning asosiy "xususiyatlari" jamiyat muammolariga e'tiborsizlik, sustlik, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarga daxldorlik xissini susayishi, beqarorlikda ko'rinadi. Bundaylarning qalbi shikastlangan bo'ladi. Bunday shaxsning boshqalar ta'siriga tushish umkoniyatlari doimo yuqori bo'ladi. Ularning qalbini egallashda katta qiyinchilik sezilmaydi. Bu – jamiyat va millat uchun o'ta xavfli. Shuning uchun ham bizning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimiz ayrim yoshlarimizda mavjud bo'lgan margenallik holatini bartaraf qilishga qaratilishi lozim.

Nazarimizda, qo'yilgan masalaga bundan ortiq izoh yo'q. Qalb bilan uyg'unlashgan joyda rivojlanish, yaxshilik, ezgulik, go'zallikka intilish bor. Qalb, dil va aql o'rtasidagi kelishmovchilik esa, barcha ziddiyatlar, nohaqliklar, adolatsizliklarning manbaidir. Shubhasiz, ushbu holatda qalb, dil, yurakning o'rni, ahamiyati kattadir.

Buyuk allomalarimiz qayd etganlari kabi insonni, pirovard natijada jamiyatni ma'rifat bulog'idan sug'orishning yo'li shaxsni ma'naviyat, ma'rifatga oshufta qilishdadir. Muammoga boshqacharoq munosabatda bo'ladigan bo'lsak, insonni va jamiyatni turli balo-qazolardan asrashning yagona yo'li qalbni davolash, uni sog'lomlashtirishdir.

Bu yo'lda mamlakatimizda mustaqillik yillarida misli ko'rilmagan katta hajmdagi ishlar bajarildi. Ma'naviyat, ma'rifat davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Muhimi, ushbu haqiqatning rasman e'lon qilinganida emas, balki bu narsaning fuqarolarimiz tomonidan e'tirof etib, tan olinganidandir.

Madaniyatning maqsadi, ijtimoiy funksiyalari o'zgardi. Agar avval madaniyat davlatning, hukmron siyosiy mafkuraning imperiyachilik maqsadlarini amalga oshirish vositasi sanalgan bo'lsa, endi u o'zining mukammalligini ta'minlovchi,

millatni birlashtiruvchi, uyushtiruvchi, yagona milliy manfaatga xizmat qiluvchi hodisaga aylandi.

Natijada ma'naviy-ma'rifiy sohada fuqarolarimiz orzu qilgan kunlarga yetdik. Milliy-ma'naviy, tarixiy merosimizni o'zimizga qaytarish imkoniyatiga ega bo'ldik. Millatning mavjudligi uning madaniyatida aks etishi to'g'risidagi haqiqat tom ma'noda qaror topa boshladi. Milliy madaniyatimizning tiklana boshlashi bizning jahon maydonidagi o'rnimizni belgilashga ko'mak bera boshladi. Ushbu ijobiy jarayonlar silsilasida Yurtboshimizning "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014-yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishini alohida ta'kidlash lozim. Ta'bir joiz bo'lsa aytish kerakki, bu hujjat jamiyatni yanada ma'rifatparvarlashtirish, insoniy fazilatlarga ustuvor tavsif berish, inson qalbida ezgulik, yaxshilik, adolat tamoyillarini qaror toptirishga qaratilgan jiddiy qadamdir.

Shu bilan birga dunyo tobora globallashib borayotgan, barcha sohalarda integratsiya jarayonlari avj olayotgan hozirgi davrda jamiyatimizning ayrim fuqarolarida, ayniqsa, yoshlar ongida kuchli tafakkuriy o'zgarishlar sodir etish o'ta dolzarb bo'lib qolmoqda. Ayrim yoshlarimizda egoism, xudbinlik, jamiyat manfaatlariga bepisandlik kabi illatlarning mavjudligida g'arbning ta'siri kuchayib borayotganligini ham sedan chiqarmaslik muhim, deb o'ylaymiz.

Bunday murakkab sharoitda yoshlar o'rtasida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarimiz samaradorligini oshirishdan ham muhimroq ish yo'q. Buning uchun, eng avvalo, yoshlarimizda o'z ma'naviy qiyofasini boyitishga imkon beradigan sog'lom ehtiyojni shakllantirish o'ta zarurdir.

Sog'lom ma'naviy ehtiyoj inson qalbini nurga, yaxshilik, ezgulikka to'ldiruvchi, uni yomon illatlardan himoya qiluvchi vosita hisoblanadi. Sog'lom ehtiyojni shakllantirish uchun esa, mavjud holatni tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lishimiz lozim. Bunday holatni aniqlash uchun esa, bizning nazarimizda, quyidagilarga e'tibor berish lozim.

*Birinchi*dan, bugungi yoshlarimizning shaxs sifatidagi maqomida qaysi sifatlar ustuvor ahamiyatga ega bo'lmoqda: moddiy boylikmi, amalgam o'tirishmi, bilim olishmi, umumiy madaniy saviyani oshirishmi?

*Ikkinchi*dan, yaratilgan ma'naviy ne'matlar – badiiy asarlar, kino-teatr asarlari, ommaviy axborot vositalari nashrlari yoshlarimizning qiziqishlarini o'rgangan holda taklif etilyaptimi?

*Uchinchi*dan, davlat hokimiyatning turli pog'onalarida, ayniqsa, quyi pog'onalarida yoshlarimizning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish, ularning ma'naviy qiyofasini shakllantirish yo'lidagi faoliyat hozirgi kun talabiga javob bera oladimi?

*To'rtinchi*dan, bozor iqtisodiyoti munosabatlari tabiatidan kelib chiqqan holda jamiyatimiz fuqarolari madaniy saviyasini oshirishga ko'mak berish mumkin bo'lgan homiylik harakatidan qoniqish hosil qilish mumkinmi?

Jamiyat ma'naviy qiyofasini belgilashda, fuqaroning sog'lom ma'naviy ehtiyojini shakllantirishda, shak-shubhasiz, yuqoridagi savollarga berilgan javoblar muhim ahamiyatga ega. Fuqaro ma'naviy ehtiyojini shakllantirish o'ta murakkab va ma'lum vaqtni talab etadi. Buning uchun, eng avvalo, shaxsda o'zini-o'zi rivojlantirishga moyillik bo'lishi lozim. Bu esa, ko'proq oila, mahalla, o'qiyotgasn yoki ishlayotgan bilim yurti, muassasa, tashkilotdagi, umumiy tarzda aytadigan bo'lsak, jamiyatdagi o'rnak va ibrat masalasiga bog'liq. Bu birinchi masala.

Masalaning ikkinchi jihati yon-atrofimizda, dunyoning boshqa mamlakatlarida yoshlarga taqdim etilayotgan turli ma'naviy "ne'matlar" saviyasiga bog'liq. Insonning go'zal fazilatlari, uning muqaddasligini ifoda etuvchi asarlar bilan birga uni kamsituvchi, yerga uruvchi ayrim "asarlar"ning yuzaga kelishi, shubhasiz, fuqaro ma'naviy ehtiyojini vulgarlashtiradi. Bosqinchilik, ur-yiqit, zo'ravonlikni muntazam ravishda "tomosha qiluvchi", "o'qiydigan" kishidan nimani kutish mumkin? Sog'lom ma'naviyat yomon odamni yaxshi odamga, yaxshi odamni esa go'zal xulqli insonga aylanishini ifoda etuvchi ma'naviy boyliklar asosidagina shakllanishi mumkin.

Muammoning uchinchi jihati ham bor. Shu narsa ma'lumki, fuqaroda, pirovard natijada, millatda o'zga shaxs va millatning ma'naviy "boyliklar"ni o'zlashtirishga, ularni "kult" darajasiga ko'tarishga moyillik holatlari mavjud. Buning uchun, avvalo, o'sha shaxs yoki millat madaniyati boshqalar madaniy taraqqiyotidan sustroq bo'ladi. Bo'lak tomondan esa shaxs va jamiyatda o'zini-o'zi rivojlantirishga bo'lgan harakat kam bo'ladi.

Ammo, o'zbek xalqi o'z milliy-madaniy taraqqiyoti bilan jahonda alohida hurmat va e'zozga ega bo'lgan xalq hisoblanadi. Bu – e'tirof etilgan aksioma. Ana shu milliy-madaniy boyliklarni xalqimiz ongi-shuuriga singdirish, ularning qalbiga jo etish asosida millat madaniy-ma'naviy qiyofasini shakllantirish lozim.

Biz ko'pincha sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirish to'g'risida gapiramiz, uning zarurligi asosida o'z mulohazalarimizni beramiz – bu to'g'ri. Ammo yana shu ham ma'lumki, jahon amaliyotida sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirishning umume'tirof etilgan yagona yo'li yo'q. Bunday ehtiyoj, bir tomondan millatning milliy-madaniy tarixiy merosi, jamiyat fuqarolarining mazkur merosga bo'lgan munosabati natijasida shakllansa, boshqa tomondan, davlatning milliy-madaniy merosga, uni fuqarolar tomonidan o'zlashtirishga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

Shu o'rinda bir misol: A. Chexov asarlari 146, A.Pushkin 89, N.Gogol asarlari 68, F.Dostoevskiy asarlari 46, A.Tolstoy asarlari 44 marta ekranlashtirilgan, ularning asarlari asosida badiiy filmlar yaratilgan ekan. Dunyoda asarlari eng ko'p ekranlashtirilgan adib U.Shekspir bo'lib, u 300 tani tashkil etarkan.

Albatta, yuqorida nomlari zikr etilganlarga mumtoz adiblar sifatida butun jahon, jumladan biz ham tan beramiz. Ayni paytda o'zbek xalqining boy madaniy, ilmiy merosini yaratgan, unga asos slogan olimu fuzalolarimiz, mutafakkirlarimiz to'g'risida, ular yaratgan boy ilmiy-madaniy meros haqida biz yosh avlodga berayotgan bilimlarimiz, ularni badiiy obrazlar orqali yetkazib berish darajamiz hozirgi kun talablaridamikin? Shu o'rinda yoshlarimizga ular yosh, milliy xususiyatlari, qiziqishlarini e'tiborga olib, turli mavzularda qiziqarli kitoblar, badiiy, hujjatli asarlar nashr etsak, kinofilmlar yaratsak maqsadga muvofiq bo'lardi.

Qolaversa, biz yoshlarimizda sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirishimiz uchun, ularga milliy-madaniy tariximiz haqida yetarlicha bilim, tasavvurlar berishimiz lozim. Masalan, Zarautsoy (Surxondaryo) qoyatosh suratlari yurtimizda bundan 14-15 ming yil avval ilk san'at asarlari paydo bo'la boshlaganligini, bu madaniyat jahonga mashhur Ispaniyaning Altamira, Fransiyaning Lyasko g'orlari devoriy suratlari qadr-qimmatidan kam emasligini yoshlarimizga bildirishimiz sog'lom ma'naviy ehtiyojning tug'ilishiga qiziqish uyg'otmasdan qolmaydi. Bundan 5 ming yil ilgari ajdodlarimiz bronza metal eritish texnologiyasini o'zlashtirganlar. Mis va qalay yoki mis bilan qo'rg'oshin aralashmasidan bronza metali kashf etganlar. Bizning ajdodlarimiz sifatli bronza olish uchun mis bilan qo'rg'oshin aralashmasi 9:1 nisbatda, uni yaratish harorati 930-1030 daraja bo'lishini ming yillar ilgari bilganlar.

Buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino o'rta asr musulmon Sharqida, xususan, O'zbekistonning hozirgi hududida 35 ta ilm yo'nalishi mavjudligini ta'kidlab, ularning har biriga tavsif berganlar.

Xo'sh, biz nima uchun bunday misollarni keltiryapmiz? Gap shundaki, ma'naviy ehtiyoj o'z-o'zidan, quruq joyda paydo bo'lmaydi. Qolaversa, o'quvchining oddiy fuqaroning bunday ehtiyojini ma'muriy yo'llar bilan shakllantirish ham mumkin emas. Majburan kitob o'qitish, sahna asarini tomosha qildirish mumkin. Ammo bu yo'ldagi ma'muriy usul o'quvchining ma'naviy ehtiyojini shakllantirishdan ko'ra ko'proq aks ta'sir etishi mumkin.

Shu ma'noda bizning jamiyat a'zolari o'rtasida olib boradigan ishlarimiz, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarimiz o'z maqsad-muddaomizga yetkazyaptimi, ular sog'lom ma'naviy ehtiyojini shakllantirishga xizmat qilyaptimi – buni aniqlash juda muhim. Qolaversa, sog'lom ma'naviy ehtiyoj fuqaroda erkin tafakkur qilish, fikriy mustaqillikka erishishni ta'minlaydi. Bu haqda Yurtboshimiz I.A.Karimov shunday degan edi: “Bu o'rinda gap qandaydir targ'ibot-tashviqot haqida emas, balki odamlarning ko'zini ochib berish, ularning qalbi va ongida mustaqil fikr uyg'otish haqida bormoqda.

Yurtboshimiz ta'kidlagani kabi, olib borilayotgan targ'ibot-tashviqot, ma'naviy-mafkuraviy ishlarimiz aniq maqsadga yo'naltirilmas ekan, undan hech kim, hech qanday naf ko'rmaydi. Fuqaroning qiziqishi, xususiyatlari, yoshi va boshqa jihatlari e'tiborga olinib o'tkaziladigan har qanday tadbir bir tomondan, o'sha shaxsning sog'lom ma'naviy ehtiyojini shakllantirishga xizmat qilsa, boshqa tomondan, uning ma'naviy qiyofasini boyitishga, mustaqil shaxs sifatida tarbiya topishiga imkon beradi.

Darhaqiqat, barkamol inson tarbiyasi, yoshlar qalbida yaxshilik, ezgulik, millat va Vatanga mehr qo'yish sifatlarini shakllantirish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Bemaqsad, samarasiz yuzlab nafi tegishi mumkin. Buni barchamiz bilamiz. Biroq, tadbirlarimizning besamarligiga yana bir boshqa sabab borgan o'xshaydi.

Gap fuqarolarimizning, ayniqsa, yoshlarimizning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda, ular qalbida yaxshilikka oshnolik sifatlarini uyg'otishda mavjud vaziyatni yaxshi anglab yeta olmayotganligimiz haqida ketyapti. Shu o'rinda mamlakatimiz yoshlarining ma'naviy-mafkuraviy xaritasini yaratish maqsadga muvofiq bo'lar edi, deb o'ylaymiz. Ushbu shartli "xarita"da yoshlarimizning yosh xususiyatlatlari, qiziqishlari, intilishlari, maqsadlari o'z ifodasini topgan bo'lishi muhimdir. Masalan, qaysi yoshda Alisher Navoiyni talqin qilish haqida o'ylamas ekanmiz va uni keksayu yoshga bir xil tarzda "targ'ib-tashviq" etarkanmiz, unday asar bir toifa odamga bir xil, boshqalarga esa tamomila o'zgacha ta'sir etishi mumkin.

Yoshlar qalbi shakllanayotgan qalb hisoblanadi. Shakllanish jarayoni to'g'ri belgilanmas ekan, bunday vaziyatda insonning virtual dunyoda inson qalbida hali to'la anglab yetilmagan qandaydir g'ayriodatiy o'zgarishlar ro'y beradi, undaylarda turli tubanliklarga tushish erkinlik sifatida tahdid etiladi. Yana shu narsa ma'lumki, virtual dunyoda inson ma'naviy javobgarlikni his etmaydi. Hattoki, mutaxassislarning ta'kidlashicha, virtual dunyo, uning zamonaviy axborot texnologiyalari bag'rida yaratilishi atom bombasining kashf etilishidan ham xavfli. Hozirgi sharoitda ayrim yoshlarimizning virtual dunyoga tushib qolishi, ularning real

dunyodan ajralib qolayotganliklarining ikki sababi bor, deb o'ylaymiz: birinchidan, undaylar o'zining mustaqil ma'naviy qiyofasiga ega emas. Natijada "chetda"gi narsalar uni o'ziga tortadi, asta-sekin real dunyodan oyog'I uzilganini sezmay qoladi. Ikkinchidan, bunday toifadagi yoshlarda o'zini-o'zi rivojlantirishga ehtiyoj yo'q, shuningdek, bu narsa ularni moslashuvchanlik, ergashuvchanlik kayfiyatiga tushirib qo'yadi.

Yoshlarimizni virtual dunyoga tushib qolishidan asrash, ularning qalbini ezgulik, yaxshilik urug'lari bilan to'ldirish uchun, eng avvalo, bundaylarni margenallik holatidan chiqarish lozim. Margenallik – ayrim shaxs yoki guruhning jamiyatda muayyan guruh, tabaqa, qatlamaq mansub bo'lmasdan, "chekkada", "oraligda" qolishidir.

Boshqacha so'z bilan aytganda, margenallik holatida u yoki bu shaxs "arosatda" qolishi mumkin. Jamiyat, oila, mahalla ta'siridan "chiqish esa margenallik holatiga tushgan shaxsga beparvolik, uquvsizlik, ijtimoiy hayotdan begonalashuvni yuzaga keltiradi. Bunday holatga tushgan shaxsning asosiy "xususiyatlari" jamiyat muammolariga e'tiborsizlik, sustlik, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarga daxldorlik xissini susayishi, beqarorlikda ko'rinadi. Bundaylarning qalbi shikastlangan bo'ladi. Bunday shaxsning boshqalar ta'siriga tushish umkoniyatlari doimo yuqori bo'ladi. Ularning qalbini egallashda katta qiyinchilik sezilmaydi. Bu – jamiyat va millat uchun o'ta xavfli. Shuning uchun ham bizning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimiz ayrim yoshlarimizda mavjud bo'lgan margenallik holatini bartaraf qilishga qaratilishi lozim.

Inson va jamiyat taraqqiyotining asosi, uni rivojlantirishga yo'naltiruvchi kuch ehtiyoj ekanligini bilamiz. Ehtiyojning qondirilishi jamiyatning mukammallik, insonning barkamollik sari yo'naltirilganligini anglatuvchi omildir.

"Falsafa" qomusiy lug'atida "ehtiyoj" – inson talablari asosida paydo bo'ladigan tabiiy xususiyat; jonli mavjudot hayot kechirishining yaqqol shart-sharoitlarga, uning shularga bog'liq ekanligini ifoda etuvchi holat. Insonning faolligi boshqa mavjudotlardan tub darajada ham mohiyat, ham shakl jihatdan tafovutga ega bo'lib,

yuzaga kelgan ehtiyojlarning turli vaziyatlarda qondirilishida o'z ifodasini topadi. deyiladi.

Odatda, ehtiyojlar tabiiy va madaniy turlarga bo'linadi. Tabiiy ehtiyojlar bizning tana, a'zolarimizning rohatlanishi, ovqatlanishi, dam olish, uxlash kabi holatlarga bog'liq bo'lsa, madaniy ehtiyojlarimiz chegarasi juda keng, tunganmas hisoblanadi. Ya'ni, tabiiy ehtiyojlarimizni qondirishda ma'lum chegaralar mavjud bo'lsa, madaniy ehtiyojlarimiz darajasi o'ta rang-barang.

Madaniy ehtiyojlar shaxs va jamiyat, shaxslararo munosabatlar, madaniy-ma'rifiy aloqalar o'rnatish usullari bilan bevosita bog'liqdir. Shuningdek, o'qish, bilim olish, tajriba orttirish, o'zini-o'zi rivojlantirishga intilish ham inson madaniy ehtiyojining muhim jihatlari hisoblanadi.

Insonning tabiiy ehtiyojlari, ularning qondirilishi masalasi madaniy ehtiyojlarga qaraganda aniqroq. Madaniy ehtiyoj va uning qondirilish jarayoni ko'pchilik uchun mavhumroq.

Madaniy ehtiyojning mavjudligi va uni qondirilishiga bo'lgan har qanday harakat pirovard natijada insonning ma'naviy qiyofasi shakllanishiga olib keladi. Inson ma'naviyati to'g'risida so'nggi yillarda juda ko'p gapirilmoqda.

Gap yoshlarning nimani o'qishi, tomosha qilishi, eshitishni o'rganishi bilan birga nimani o'qishga, tomosha qilishga, eshitishga istak-xohishi borligini aniqlashda ketyapti. Yana ham boshqacharoq aytganda, yoshlarning ma'naviy didini, uning darajasini o'rganmas ekanmiz, ular haqida jo'yali fikrni aytish qiyin.

Agar biz milliy xususiyatlarimiz, xarakterimizga nomunosib madaniy boyliklarni o'zlashtirishga intilar ekanmiz, pirovard natijada, bu narsa ma'naviy parokandalikka olib kelishi tayin. Shu o'rinda Yurtboshimizning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobidagi quyidagi fikrlari juda o'rindidir: ..."agar insonning qulog'i yengil-yelpi, tumtaroq ohanglarga o'rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma'naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi hech gap emas. Oxir-oqibatda bunday odam "Shoshmaqom" singari merosimizning

noyob durdonalarini ham, Motsart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo'ladi.

Ushbu fikr yoshlar ma'naviy qiyofasi, "madaniy portreti"ni shakllantirish nechog'lik muhim ekanligini anglatadi. Yoshlarga nimanidir taqdim etish uchun ushbu taqdim etilayotgan narsa (musiqa, qo'shiq, kino, kitob) ularga nima berish I mumkinligini anglashimiz muhimdir. Ayrimlarning globallashuv sharoitida yoshlar o'zlaricha xohlagan narsani olishi, o'z madaniy ehtiyojlarini xohlaganlaricha qondirishga haqlidirlar, degan gaplarida ma'lum darajada mag'iz yo'qligi sezilarli. Hozirgi zamon o'zbek yoshlari "madaniy portreti"ni yaratish madaniy sohada olib boriladigan ishlarni aniqlashtiradi, fuqarolar, ayniqsa, yoshlarning talab, istaklarini e'tiborga olish mexanizmini shakllantiradi.

San'atkorning go'zal asarlar yaratishga bo'lgan ma'naviy ehtiyoji shu tarzda ro'y bergan, deyishga haqqimiz bor. Oddiy fuqaroning o'sha san'atkor tomonidan yaratilgan asarni o'rganish, o'zlashtirishga bo'lgan madaniy ehtiyoji ham g'oya asosida shakllanadi. Ayrimlar hozirgi kundagi yoshlarimizning turli "ommaviy madaniyat" jabhalariga qiziqishini ehtiyoj deb baholaydilar. Ammo har qanday qiziqish ham ehtiyoj bo'lavermaydi. Qiziqish – vaqtinchalik, ehtiyoj – abadiy.

Yoshlar ma'naviy ehtiyojining shakllanishi san'atkorning mas'uliyatiga ham bog'liq. San'atkor mas'uliyatli, eng avvalo, xalqqa xizmat qiluvchi, uning ma'naviy ehtiyojini qondiruvchi, uning kayfiyatini ko'taruvchi sohaga sidqidildan xizmat qilishidir. Shu asnoda ta'kidlash lozimki, o'zini san'atkor deb hisoblagan shaxs, deylik qo'shiqchi, o'z ashulasida biror-bir g'oyani ifoda eta olmasa, insonni yaxshilik, ezgulikka unday olmasa, uni qanday san'atkor deyish mumkin.

Avvallari O'zbekiston televideniyasida maqom kechalari uyushtirilar, lirik ashulalar dasturlari muntazam ravishda berib borilardi. Bunday dasturlarning yo'qligi, tabiiyki, yoshlarda "pop", "rok" musiqalarining ildiz otishiga sabab bo'ldi. Biz ko'pincha o'zbek milliy madaniyatiga nomunosib asarlarning ko'payib borayotganligidan noroziligimizni bayon etamiz. Ayni paytda uning o'rniga mumtoz madaniyatimiz namunalarini tavsiya eta olmayapmiz.

Madaniy ehtiyoj o'z-o'zidan shakllanadigan jarayon emas. U yo'naltirilishi, regulatsiya qilinishi lozim. Aks holda bir tomondan yoshlarimizning sof milliy madaniyatdan yiroqlashishiga, boshqa tomondan, milliy mazmunga yot sohta asarlarning ko'payib ketishiga imkon berishimiz mumkin.

2.2. Jamiyatda yoshlar faolligi oshirishda xizmat qiluvchi tadbirlar

³2008 yil mamlakatimizda “Yoshlar yili” deb e'lon qilindi. Bunday mulohaza va qarorga kelinishida men quyidagi uchta asosni ko'rayapman:

Birinchidan: mamlakatimiz tom ma'noda yoshlar yurti. Hozirda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar 10 milliondan ortiqroq yoki umumiy aholining qariyb 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa aholining 64 foizini tashkil etadi.

Ikkinchidan, mamlakatimiz rahbariyati yoshlarni jamiyatimizning yetakchi kuchi, deb hisoblaydi. Shu ma'noda ularga qilingan har qanday g'amxo'rlik, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish kelajakka tashlangan nazar, uni oldindan tasavvur etish yo'lidagi intilishdir.

Uchinchidan, yoshlarga bo'lgan munosabat o'zbek xalqining milliy xususiyatidan kelib chiqadi. Har bir yosh jamiyat uchun individual shaxs, ijtimoiy faol inson sifatida tan olinsada, u eng avvalo, ota-onaning farzandi, oilaning mevasi hisoblanadi. Ya'ni o'zbek milliy xususiyatiga binoan yosh yigit-qiz, o'spirinda g'arb tengdoshlaridagi individualizm bilan sharq ijtimoiyligi uyg'unligi mavjud.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlar siyosatining huquqiy asoslari yaratildi. Ularni ijtimoiy hayotga jalb etish, iste'dodlarini o'z vaqtida payqash mexanizmi shakllandi. “Nihol” va “Zulfiya” mukofotlari tanlovlari, “Yangi avlod” va “Kelajak ovozi” ko'rik-tanlovlari, yana boshqa o'nlab tanlovlar yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning iqtidorlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bir so'z bilan aytganda, hozir mamlakatimiz yoshlarini har tomonlama qo'llab-

³A. Mavrulov “Barkamol avlod inson tarbiyasi”

quvvatlashning davlat siyosati darajasidagi mexanizmi mavjud. U ishlamoqda. Bu birinchidan...

Ikkinchidan, yigit-qizlarimiz, yoshlarimiz bunday imkoniyatlar mavjudligidan xabardor. Eng muhimi, ular o'z imkoniyatlarini adolatli ravishda, kuchli raqobatchilik vaziyatida amalgam oshirishga ishonmoqdalar. Bu juda muhim.

Endi masalaga boshqa jihatdan munosabatda bo'lsak. Mamlakat Yurtboshisi "Yoshlar yili" davlat dasturida o'z aksini topadigan barcha maqsad va vazifalarni o'zida mujassam etadigan g'oya bo'lishi, u hammaga ayon bo'lishi lozim deydi. "Bu g'oya – deydi I. Karimov, - yoshlarimizning huquq va manfaatlarini himoyalash, bugungi o'ta murakkab va tahlikali zamonda mavjud bo'lgan har qanday xatarlarga, zararli ta'sir va oqimlarga nisbatan ogoh, sezgir va hushyor bo'lib yashashni va jamiyatimiz hayotida munosib o'rin egallashini ta'minlashdan iborat.

Mazkur fikrda juda katta, zalvorli ma'no yotganligini ta'kidlashning o'zi yetarli emas. Qayd etilgan g'oyaning toshi og'ir. Uni mushohada etish va bu borada belgilangan vazifani hal etish esa undan qiyin. Qayd etilgan fikrda diqqatni tortadigan muhim masala shuki, undan yoshlardan jamiyat hayotida munosib (ta'kid bizniki: M.A) o'rin egallash talab etilmoqda.

Darhaqiqat, shaxs, insonning, mutaxassis sifatida endi shakllanib kelayotgan, tobora globallashib borayotgan va jahonda tez o'zgarib borayotgan jarayonlar ichida o'zining "men"ini topishda adashib qolmasligi, ayni paytda, jamiyat hayotida munosib o'rin topishi o'ta murakkab vazifa hisoblanadi. Yana shu narsa ma'lumki, bunday "munosib" bo'lishning yagona, hamma tomonidan e'tirof etilgan tashxisi ham yo'q.

Bas, shunday ekan, Yurtboshimiz tomonidan qo'yilgan mazkur muammoni hal etish uchun nima qilish lozim? Nima qilsak yoshlarimiz o'zining "men"iga ega bo'ladi va sodir bo'layotgan hodisalar girdobida adashib qolmaydi?

Tabiiyki, mazkur muammoli qator vazifalarni bajarishda, o'zimizga bog'liq va bog'liq bo'lmagan omillar, ularga bizning yondashuvimiz ta'sirisiz hal etish mumkin emas.

Keling, yoshlarimizning jamiyat hayotida “munosib” o’rin egallashi va o’z “men” iga ega bo’lishi uchun zarur bo’lgan ayrim shaxsiy fikrlarni bayon etsak.

Birinchidan, ta’kid etish lozimki, mustaqillik yillarida yoshlarimizning o’qishga bo’lgan munosabati o’zgardi. Ta’lim tizimidagi o’zgarishlar, yangi, zamon talablariga javob beradigan ixtisosliklarning yuzaga kelishi yoshlarning kasbiy qiziqishlarini oshirdi.

Ayni paytda, o’qishni “kult” darajasiga ko’tarishda ayrim muammolar uchrab turibdi. Meni bir ziyoli, o’qituvchi sifatida tashvishga solayotgan narsa shundaki, ayrim yoshlarimiz o’qishdan ko’zlangan asosiy maqsadni, bu – oily o’quv yurtiga kirishdan iborat jarayon deb tushunishlarida. Alohida fan yo’nalishi bilan, tor ixtisoslik bo’yicha shug’ullanish, “repititorlik” maktabidan o’tish, bu yomon emasdir, ammo maqsadni tor olish u yoki bu yigit-qizda to’g’ri mo’ljal olishga harakat qiladi.

Ushbu masalaning yana bir jiddiy jihati mavjud: ayrim yoshlarimiz o’z ma’naviy qiyofasini shakllantirish, egallayotgan mutaxassisligini qo’lga kiritish uchun mustaqil aqliy faoliyatda ojizlikka yo’l qo’ymoqdalar. Xorijiy mamlakatlarda chop etilgan adabiyotlarni o’rganish, internet ma’lumotlariga suyangan holda Abu Ali Ibn Sinoni arab millatida mansub mutafakkir, deyish, tabiiyki, yuqoridagi kabi holatlar tufayli sodir bo’lishi mumkin.

Ikkinchidan, yoshlarimiz jamiyatda munosib o’ri egallashlari uchun, nazarimda o’z tafakkurlarida chuqur islohot o’tkazishlari lozim. Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotning barcha jabhalarida chuqur islohotlar o’tkazilmoqda. Ular o’zining ijobiy natijalarini bermoqda. Bunga hech kim shubha qilmaydi. Bu narsani horijiy ekspertlar ham e’tirof etmoqdalar.

Shu bilan birga, ayrim yoshlarimiz ongu shuurida, tafakkurida yangilikni anglab yetishga, kelajakni yorqin tasavvur etishga halaqit qilayotgan omillar ham borki, bularni e’tibordan chetda qoldirib bo’lmaydi. Masalaga kengroq munosabatda bo’ladigan bo’lsak, biz yangi jamiyat barpo etmoqdamiz. Ammo yangi jamiyatni eski tafakkur, qarashlar bilan barpo etib bo’lmaydi. Buyuk alloma Mahmud az-Zamaxshariy ta’kid etgani kabi: “Ezgu, hayrli ishlarga astoydil kirish, ularni paysalga

solib, keyin qilarman, degan o'ylardan voz kech, shayton yo'ldan uradigan shoshma-shosharlik bilan emas, tafakkur va idrok bilan ish tut'.

Haqiqatan ham, aql, tafakkur, ilmiy idrok insonni aldamaydi, unga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi. Xo'sh, yoshlar tafakkurini isloh etish uchun nima qilmoq kerak? Bu bizga ma'lum darajada ayon: o'qish, jamiyat rivojlanish qonuniyatlarini bilish, o'zining amaliy faoliyati bilan jamiyat tomonidan qo'yilayotgan talablarga javob berish va hokazolar.

Endi masalaning boshqa tomoniga e'tibor qarataylik: yoshlarda tafakkur o'zgarishi tufayli nimaga erishish mumkin? Nazarimizda, buning natijasida, eng avvalo, yoshlarda tevarak-atrofdagi, mamlakatimizda, uning tashqarisida yuz berayotgan voqea-hodisalarga to'g'ri baho berish, xolisona xulosa chiqarishga erishish mumkin.

Shu o'rinda yoshlarimizning mamlakatimizda va uning tashqarisida yuz berayotgan o'zgarishlarni ijtimoiy ekspertizadan o'tkazish masalasiga munosabatini aniqlash ham alohida ahamiyatga molik ekanligini ta'kidlash muhim. Ijtimoiy ekspertiza fuqarolarni, ayniqsa, yoshlarni turli adashishlardan, xato xulosa chiqarishlardan muhofaza qiluvchi vositadir.

Zamonaviy tadbirlar. Ijtimoiy siyosiy tadbirlar.

Mustaqillikdan so'ng, O'zbekiston rahbariyati, eng avvalo, xalqimiz ehtiyoji, orzu-istaklarini hisobga olib, azaliy bayramlarini tiklashga va istiqlol davri bayramlarini xalqimizning qadimiy an'analariga monand holda shakllantirishga katta e'tibor bera boshladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Farmonlari asosida "Navro'z", "Ramazon hayiti". "Qurbon hayiti", "Hosil bayramlari" kabilarni ma'naviyatimiz javohirlari sifatida ko'rsatishga intilish bo'lmoqda. Chunki har bir bayram orqali xalq dardi, orzu istaklari, tajribalari avloddan-avlodga qadriyat sifatida o'tadi. Yangi davr, yangi mazmun va yangi shakl an'analarining paydo bo'lishi, mustaqil hayotning quvonchli daqiqalarini tantana qilishga imkon beradigan yangi tadbir-bayramlari yaratishni taqozo etadi. Jumladan, istiqlol sharaflaydigan "Mustaqillik bayrami" hayotimizning bosh qonunini targ'ib

etadigan “Konstitutsiya kuni” rasmiy bayram sifatida nishonlanadigan bo’ldi. Endilikda kelajak avlodni tarbiyalashda alohida rol o’ynayotgan sharafli kasb egalari mehnatini ulug’laydigan “O’qituvchilar va murabbiylar kuni”, o’tgan ajdodlar yodini esga olishga bag’ishlangan “Xotira va qadrlash kuni” mamlakatimizda keng nishonlamoqda. Buyuk allomalarimizning tavallud sanalarini, jahon madaniyatida buyuk me’moriy obidalari bilan munosib o’rin tutgan qadimiy shaharlarimizga bag’ishlangan xalqaro tadbirlarni tantanali bayram sifatida nishonlanishi ham xalqimizni g’oyat quvontirdi. “Alpomish” dostoni yaratilganligining ming yillik tantanasi, “Avesto” yaratilganligini 2700 yilligiga oid tantanalar ajdodlarimizning bebaho merosiga qiziqishimizni yanada oshiradi. Musiqa va kino festivallar, qo’shiq bayramlari, turli ko’rik-tanlovlar ham mustaqillik mevasidir.

Mustaqillik tantanalari.

Mustaqillik o’zbek xalqiga o’z qadr-qimmatini, bo’y-bastini, madaniyati va an’analari, dinu e’tiqodini, tili va ma’naviyatini qayta tiklab olishga, milliy g’urur va Vatanga muhabbat tuyg’ularini kamol toptirishga to’la-to’kis asos yaratdi. Mustaqillik bayrami o’zbek xalqining eng muhim an’anasiga aylanmoqda.

O’zbekistonda har yili Mustaqillik bayrami katta tantanalar bilan nishonlanadi. Unga tayyorgarlik ko’rish rejalari va uni yuqori saviyada o’tkazish tadbirlari oldindan belgilanadi. Bayram oldi hasharlar o’tkazilib, shaharlar, qishloqlar, mahallalar, ishxonalar tartibga keltiriladi. Bayram kuni barcha joylarda katta tomosholar, tantanalar va xalq sayillari bo’lib o’tadi. Toshkent shahrining “Mustaqillik maydoni”da har yili 31-avgust kechki payt respublikadagi eng yirik teatrlashgan tomosholar bo’lib o’tadi. Bu tadbirlarda san’atkorlar mustaqillik, yangilanish, insoniy poklanishga bag’ishlangan kuy, qo’shiqlar ijro etadilar. Asosiy tomosholardan so’ng, xalq sayli poytaxtning turli maydonlarida kechgacha davom etadi.

Konstitutsiya va Davlat ramzlariga bag’ishlangan tadbirlar. Mustaqil O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi eng ilg’or mezonlar asosida ishlab chiqilganligini jahon tan olmoqda. Konstitutsiya yaratilishida uchta asosiy manbaga:

birinchidan, milliy huquqiy merosimizga, ikkinchidan, umuminsoniy huquqiy qadriyatlarga, uchinchidan, xorijiy mamlakatlarning tarixiy va zamonaviy konstitutsiyalari tajribasiga tayanilgan. Konstitutsiya O'zbekiston mustaqillik qomusi hisoblanadi. Chunki u davlat mustaqilligini huquqiy kafolatlaydigan hujjat bo'lib, uning birinchi bobi mamlakatning davlat suverenitetini e'tirof etishdan boshlanadi. Ikkinchidan, asosiy qonunimiz – milliy konstitutsiya. Chunki unda milliy g'oya, milliy istiqlol mafkurasi aks etgan.

Davlat madhiyasi kuni.

Eng ulug' va eng aziz bayramlarimiz, mamlakatimiz hayotidagi muhim tarixiy voqealar, xalqaro anjumanlar, uchrashuvlar va boshqa yirik tadbirlar shukuhli tarona – Madhiya sadolari ostida boshlanadi. Jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rinni egallayotgan, mamlakatimizga kelayotgan taniqli davlat va hukumat rahbarlari, mashhur siyosat arboblari madhiyamiz sadolari ostida kutib olinadi va kuzatib qo'yiladi. Jahon miqyosidagi arenalarda sportchilarimiz erishayotgan olamshumul g'alabalar sharafiga, harbiy qismlarda askarlarimiz Vatanga sadoqat haqida qasamyod qabul qilayotgan unutilmas daqiqalarda O'zbekiston madhiyasi ijro etiladi. Bayrog'imiz ko'tarilayotgan hayajonli damlarga ham vatanimiz madhiyasi ohanglari alohida tantanavorlik baxsh etadi. O'quvchi va talabalarning kundalik dars mashg'ulotlari ham O'zbekiston Qahramoni, shoir Abdullar Oripov she'riga kompozitor Mutal Burhonov bastalagan musiqa jo'rligida – O'zbekiston Madhiyasi ijrosi bilan boshlanishi yaxshi odatga aylangan. Vatanimiz madhiyasi yurtdoshlarimiz qalbida ona-Vatanga muhabbat tuyg'ularini ulg'aytiradi, yosh avlodni shu jonajon yurtga cheksiz mehr-muhabbat, sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Yangi yil tadbirlari.

O'rta Osiyo xalqlari, ko'pgina sharq mamlakatlaridagidek, hozirgi kunda ikki yangi yilni, ya'ni bobolar odati bo'yicha an'anaviy "yil boshi" – "Navro'z"ni va hamma dunyo mamlakatlarida rasmiy qabul qilingan 1-yanvarni yangi yilning kirib kelishi deb bayram qiladilar. Yangi yil butun dunyoda, jumladan O'zbekistonda ham qiziqarli va mazmunli bayramga aylanmoqda, turli xalqlarda turli vaqtda

nishonlanishidan qat'iy nazar, muntazam ravishda o'tkazilib turiladigan muayyan astronomic ritmda yerning quyosh atrofida bir marta to'liq aylanishi, to'rt fasllik tabiat yilining yana takrorlanishi kabilar bilan bog'liq. Bir yilda yer quyosh atrofida 940 million km. yo'lni bosib o'tadi (Bu sekundigan 40 km. demakdir). Yer quyosh atrofini 365 kun 5 soat 48 daqiqa 46 soniyada aylanib chiqadi. Demak, koinot va tabiat qonuniyatlariga ko'ra yerni quyosh atrofida bir marta to'liq aylanib chiqishini nishonlaydigan sana bu – yangi yil bayramidir.

Qadimdan ko'pgina xalqlar (ko'proq sharqa) Yangi yilni erta bahorda yoki kuzda kutib olishgan. Slavyanlarda va boshqa xristian xalqlarda qishni kuzatish va bahorni kutish vaqtida martda “Maslenisa” – Yangi yil bayrami nishonlangan. Xristian dini tarqalishi bilan esa u “Vizantiya sistemasi” bo'yicha kuzda 1-sentabrda nishonlanadigan bo'lgan. Rossiyada yangi yilni 1 yanvarda bayram sifatida nishonlash ilk bor Pyotr I tomonidan 1699-yilda joriy etilgan.

Yangi yil arafasida maktab va oliy o'quv yurtlaridagi qishki ta'til o'quv jamoalaridagi Yangi yil tadbirlari bilan boshlanadi. Yangi yil arafasida madaniyat va san'at muassasalariga jiddiy mas'uliyat yuklanib, ular archa bayramini uyushtirishga kirishadilar. Respublikadagi deyarli barcha teatrlar, konsert tashkilotlari va sport muassasalari Yangi yil kirishi arafasida bolalar va o'smirlar uchun maxsus, katta teatrlashgan tomoshalar tayyorlab, uni to 10-yanvargacha namoyish qiladi. Yangi yil arafasida barcha kishilarning “huzurli tashvishlari” boshlanadi. Ular bir-birlarini og'zaki yoki ochiq xatlar, telegrammalar orqali tabriklashadi. Odamlar maxsus tashkil qilingan “Yangi yil yarmarkalari” va “bozorlar”idan kerakli narsalarni xarid qilib, bayram dasturxonini bezashadi. O'zbekistonda Yangi yil kirishini uyda, oila a'zolari, qarindosh, yoru do'stlar davrasida kutib olishadi. Bayram dasturxonini atrofida eng go'zal va orzu-istaklar ifoda etiladi. Shirin suhbatlar, o'yin-kulgilar avjida chiqadi. Televideniye orqali “Yangi yil bazmi” va bayram dasturlarini tomosha qilishadi. Yangi yilga sanoqli daqiqalar qolganda radio va televideniye orqali Respublika Prezidentining tabrigi yangraydi.

Xotin – qizlar kuni.

Qadimda O'rta Osiyo xalqlari orasida ayollar bayrami ("Isfandarmo'z") nishonlangan. Biroq u O'rta asrlarga kelib ko'pgina qadimiy bayramlar kabi yo'qolib ketgan. XX asr boshida Yevropada vujudga kelgan xalqaro xotin-qizlar kuni, bizga yana o'sha qadimiy bayramni qaytardi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayollar – go'zallik manbai, nazokat sohibasi, mehr egasi, muhabbat timsolidir. Ularning latofati va qalb sahovati butun jamiyatga doimo kuch-g'ayrat va shijoat baxsh etib kelgan. Ayollarni faqat bayram kunlaridagina emas, balki har kuni asrab-avaylash, og'irini yengil qilish, ularga g'amxo'rlik ko'rsatish yurt o'g'lonlarining burchidir. Mustaqillik davrida xotin-qizlar bayrami o'ziga xos tadbirlar va an'analar bilan o'tmoqda. Bayram arafasida poytaxtimizdagi muhtasham "Turkiston" saroyida Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan tantanali yig'ilish bo'lishi an'anaga aylandi. Bunga mamlakatimizning faol xotin-qizlari, faxriy onaxonlar, jamoat tashkilotlari vakillari, mehmonlar ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq 2000-yildan boshlab, xotin-qizlar bayrami tantanalarida ijodkorligi, zukkoligi, tashabbuskorligi, namunali xulqi bilan noyob iste'dodini namoyon etayotgan hamda adabiyot, madaniyat, san'at, fan va ta'lim sohasida sezilarli yutuqlarga erishayotgan bir guruh iqtidorli qizlarga Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti tantanali ravishda topshiriladi.

Yig'ilishning ikkinchi qismida ayollar bayram konserti bo'lib o'tadi. Bayram kunlari madaniyat muassasalari hamda barcha ishlab chiqarish korxonalarida, o'quv muassasalarida, jamoa xo'jaliklarida maxsus tadbirlar tashkil qilinadi. Ilg'or tadbirkor ayollar bilan uchrashuvlar o'tkaziladi. Ba'zi klublarda "Qizlar davrasi" kabi qiziqarli va mazmunli tadbirlar uyushtiriladi. Mehnat jamoalarida ham ayollarga bag'ishlangan tadbirlar bo'lib o'tadi. Bunda xotin-qizlar bayram bilan qutlanib, ularga mukofotlar, sovg'alar beriladi. Ba'zi tashkilotlar bu bayram tadbirlarini madaniyat va san'at muassasalari, kafe-restoranlarda ham o'tkaziladi.

Madaniyat dargohlarida esa xotin-qizlarga bag'ishlanga maxsus anjumanlar, jumladan, "Go'zallar ko'rigi", "Guldan go'zaldir ayolning qalbi", "Balli qizlar", "Muqaddas ayol", "Ayol go'zalligi olam go'zalligi", "Sog'lom ona-sog'lom bola", "Mehri daryo onalar" kabilar ommaviy tomoshalar, tadbirlar, ko'rik-tanlovlar, ko'rgazmalar bo'lib o'tadi.

O'qituvchilar va Murabbiylar kuni.

O'qituvchilik azal-azaldan e'tiborli kasb hisoblanadi. Mamlakatimizda o'qituvchi va murabbiylarning obro'-e'tiborini yanada oshirish, yoshlarimizning bizdan ko'ra bilimli, kuchli va albatta baxtli bo'lishlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 9-sentabr Farmoniga muvofiq 1-oktabr – "O'qituvchilar va murabbiylar kuni" umumxalq bayrami deb e'lon qilindi. Bayram kunlari o'qituvchilar qutlug' ayyom bilan muborakbod etiladi. Ommaviy axborot vositalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tabrigi beriladi. Mamlakatimizda o'qituvchi –murabbiylar bayrami quyidagicha o'tadi. Avvalo bayram arafasida respublikaning eng ilg'or o'qituvchi-murabbiylari davlat mukofotlari bilan taqdirlanadi. Barcha o'quv yurtlarida o'qituvchilarga bag'ishlangan tadbirlar bo'lib o'tadi, ular uchun dasturxonlar yoziladi, shogirdlar uztozlariga o'z tilaklarini izhor etadi. Tadbirlarda o'qituvchilarga bag'ishlangan kuy va qo'shiqlar yangraydi. Sobiq o'quvchilar uztozlarini bayram bilan tabriklash uchun maktabga keladilar.

Murabbiylar ham xuddi o'qituvchilar singari katta mahorat va hayot tajribasiga ega bo'lgan uztoz-pedagoglardir. Murabbiylar yoshlarni bevosita ish jarayonida mehnatni sevish va uning sirlarini o'rgatish orqali tarbiyalaydigan kishilardir. Bu bayram yosh ishchini mehnat jamoasiga olib kirgan va unga hamisha namuna bo'lgan, g'amxo'rlik qilgan kishini ulug'lash tadbiri sanaladi. Mohir murabbiylar qo'l ostida ko'plab ishlab chiqarish ustalari, ilg'or mutaxassislar, mehnat qahramonlari, tadbirkorlar yetishib chiqadi. Toshkent traktor zavodi madaniyat saroyida har yili "Murabbiylar kuni", "Mehnat bunyodkorligi" nomli tantanali kecha o'tkazish an'anaga aylangan. "Murabbiylar kuni"ni nishonlash arafasida madaniyat saroyida

murabbiylar faoliyati bilan yaqindan tanishtiriladigan turli ko'rgazmalar tashkil qilinadi. Ularning biri "Yoshlar yelkasida – otalar qo'li" deb nomlanadi. Uztoz-murabbiylarga bag'ishlangan kechada "Mehnat estafetasi", "Uztozlar xizmati", "Murabbiylar sharafi" ko'rgazmalari namoyish etiladi. Kecha qahramonlari – mehnatda ulkan yutuqlarga etishgan yosh ishchilarning uztozlari sahnaga tantanali ravishda taklif qilinadi. Korhona rahbari munosib shogird yetishtirilgan ustozlarga "Korhonaning eng yaxshi murabbiysi" degan nishon hamda faxriy yorliq, mukofot va sovg'alar yosh ishchilar ham murabbiylariga o'zlarining fotosuratlarini, ramziy sovg'alarini topshiradilar. Kechada ustozlarga bag'ishlangan qo'shiq va raqslar ijro etiladi.

Xotira va qadrlash kuni.

Xotira va qadrlash ajdodlarimizning eng qadimiy odatlaridan biridir. Tarixga murojaat qiladigan bo'lsak, marhumlarni xotirlash Amudaryo va Sirdaryo o'rtasida yashab o'tgan ajdodlarimizning eng qadimiy an'alaridan biri. Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" nomli asarida: Xshvm oyining oxirida so'g'd aholisi o'tgan ajdodlarni eslashi, ular xotirasi uchun yig'ilishi, yuzlarini timdalashi, o'lganlar qabriga ovqat va ichimliklar qo'yishi" haqida yozadi. Albatta, hozirgi "Xotira kuni" olis o'tmish zamonlaridagi xotirlash marosimiga aslo o'xshamaydi. Xotirlash eng zarur ehtiyoj zaminida vujudga kelgan an'anadir. Urush faxriylari, qatnashchilari va halok bo'lganlar oilalarining ko'pdan-ko'p istaklari, aholi xohish-irodasi va jamoa tashkilotlarining qo'llab-quvvatlashini e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 2-martdagi Farmoni bilan 9-may – "Xotira va qadrlash kuni" deb e'lon qilindi. Mazkur Farmon bilan Toshkent hokimiyatining Toshkent shahri markazida Xotira maydoni barpo etish to'g'risidagi taklifi ma'qullandi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqori Kengashiga, barcha viloyatlar hokimliklariga Nukus shahrida va barcha viloyatlar markazlarida shunday yodgorliklar barpo etish bo'yicha zarur tadbirlar ishlab chiqish hamda amalga oshirish tavsiya etildi⁴

⁴ O'zbekiston Respublikasi. 2-jild. T.2001-yil, 122-bet.

Xotirlash – xalq manfaati uchun kurashgan, el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgan kishilarni eslashdir. Mustaqillik xalqimizga milliy ong va tarixiy xotirani tiklash imkoniyatlarini berdi. XX asr oxirida o'lkamiz o'tmishida sodir bo'lgan xatolarni tuzatishga intilish boshladi, nohaq ayblanganlar oqlandi, xalq hayoti farovonligi uchun kurashganlarning xotirasi tiklandi. 1999-yil 9-mayda poytaxt markazida “Xotira xiyoboni” va 2000-yil 12-mayda Yunusobod tumanida “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmui ochildi. Mustamlakachilik davrida xalq ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan shahidlarning porloq xotirasi ana shu yodgorliklarda o'z abadiyatini topdi. Respublikaning barcha joylarida “Xotira va qadrlash kuni” ni o'tkazishga tayyorgarlik ishlarini samarali uyushtirish uchun oldindan Tashkiliy qo'mita tuzildi, umumiy reja ishlab chiqildi, ba'zi joylarda xotira haftaligi e'lon qilindi. Xotira haftaligi davomida aholiga “Xotira va qadrlash kuni”ning mohiyati va maqsadi tushuntirildi, o'tgan ajdodlar hayoti, faoliyati haqida materiallar, esdaliklar to'plash ishlari amalga oshirildi. Marhumlarning oilalaridan xabar olindi va ularga yordam berildi, tadbir o'tkaziladigan joylarda, qabristonlarda hashar va shanbaliklar uyushtirilib, obodonchilik ishlari uyushtirildi. Shuningdek, madaniyat muassasalarida istiqlol uchun kurash tarixiga bag'ishlangan kechalar, o'quv muassasalarida faxriylar bilan uchrashuvlar va boshqa tadbirlar o'tkazildi. Joylarda miting-marosimlar o'tkazilishi “Xotira va qadrlash kuni”ning asosiy tadbiri hisoblanadi. Miting-marosimlarda Vatan ozodligi uchun kurashganlar xotirasi yodga olinadi. Bu kunga bag'ishlanga tadbirlar, asosan, xotira va xiyobonlari, uy-muzeylar, ko'chalar, maydonlar, qabristonlarda tashkil etilib, mahalliy sharoitni hisobga olib turlicha uyushtiriladi.

Marosim uyushtiriladigan joy – oldindan maxsus bezatilib, tadbir boshlanishidan oldin mungli musiqa yangraydi. Radiokarnaylardan soat ovozi eshitilib turadi. Tadbirni tashkiliy qo'mita raisi ochib, avlodlar uzviyligi va doimiyligini mustahkamlash haqida gapiradi. Vatan ozodligi uchun kurashda halok bo'lgan yoki yurt ravnaqi uchun halol mehnat qilib vafot etib ketganlar ruhi ulug'lanib, ularning porloq xotirasini avaylash va asrashga chaqiradi. So'ngra turli

avlod vakillari qisqa nutq so'zlaydi. Mungli kuy yangrashini bilan minbarga munis ona ohista chiqib, yodgorlik yoniga borib, tiz cho'kib, qo'llaridagi gulni yodgorlik poyiga qo'yadi va o'rnidan turib, oldinga chiqadi. Shu vaqt radiokarnaydan o'tgan ajdodlar porloq xotirasini e'zozlashga, ularning ilg'or an'alarini davom ettirishga oid da'vat-chaqiriq so'zlari yangraydi. Da'vatdan so'ng bayroqlar bir oz egilib, faxriy qorovul saf tortib, barcha bosh egadi.

Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni.

Ajdodlarimiz azal-azaldan to'y, bayram qilishdan oldin o'tgan ajdodlari xotirasini yodga olgan, marhumlari sha'niga duolar o'qib, is chiqargan, elga osh tortgan.

O'zbekiston Prezidenti tomonidan qatag'on qurbonlarini yod etish kunining joriy etilishi – tarixiy an'analarni yangi zamonaviy shaklda tiklashning eng ibratli namunasi bo'ldi. Yurtboshining tashabbusi bilan Toshkentning Yunusobod tumanida bunyod etilgan “Shahidlar xotiasi” yodgorlik majmuiga 31-avgust tongida mamlakatning turli hududlaridan kelgan yuzlab vatandoshlari yig'ildi. O'zbekiston Prezidentining “Qatag'on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to'g'risida”gi Farmoniga muvofiq, hozir “Shahidlar xotirasi” majmuini yanada obodonlashtirish, “Qatag'on qurbonlari xotirasi” muzeyini tashkil qilish hamda maxsus radiolashtirilgan tizim joriy etish borasidagi tadbirlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Xususan, ko'plab qatag'on qurbonlarining nomlari aniqlanib, ularga taaluqli buyumlar, shuningdek, faoliyatiga doir materiallar, qiziqarli axborotlar, suratlar va boshqa hujjatlar yig'ilmoqda. Ular, tabiiyki, nohaq jabrlanib, shahid ketgan ota-bobolarmizning fojiali qismatini yodga solib turadi.

Madaniy tadbirlar.

Talabalar tadbirlari.

Talabalikka qabul qilish tantanalari.

O'zbekistonda oliy va o'rta maxsus ta'limi tobora ravnaq topmoqda. O'quv yurtlarida o'tkaziladigan ma'naviy va ma'rifiy tadbirlar doirasi ham kengayib, bu muassasalarda ham turli madaniyat va sport bayramlarini, olimpiada va festivallarni o'tkazishga alohida e'tibor berilmoqda. O'quv yurtlari madaniy hayotida yangi o'quv yili boshlanishi tantanasi, talabalikka qabul qilish marosimi, kurslarni yakunlashga bag'ishlangan tadbirlar, o'quv dargohini tugatishga bag'ishlangan shodiyona va diplom toptirish marosimi kabilar alohida o'rin tutadi. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida keying vaqtlarda talabalikka qabul qilish marosimlari alohida xursandchilik bilan uyushtirilmoqda. Bu tadbir quyidagi qismlardan tashkil topmoqda:

Muqaddima. Qutlov. Tabrik yuqori kurslarning faol talabalari tomonidan olib boriladi. Ular 1-kursga qabul qilinganlarni tabriklab, ularga gul va ramziy sovg'alar taqdim etadi.

1-qism. Tanishtiruv. O'quv yurtiga qabul qilinganlar o'zlarini tanishtiradi. 1-kurs talabalari o'zlari haqida, abituriyentlik, imtihonlar davrida esda qolgan voqealar, bu o'quv yurti to'g'risidagi avvalgi xayol-tasavvurlari haqida hazil aralash yoki badiiy tomoshaviy tarzda hikoya qiladi.

2-qism. Guvohnoma topshirish. 1-kursga qabul qilinganlarga talabalik guvohnomasi va o'quv yurti ko'krak nishoni topshirish marosimi. O'quv yurti kirish imtihonidan eng yuqori ball olgan ikki kishini davraga chaqiradi. Ularga katta qilib ishlangan ramziy talabalik guvohnomasi, xuddi shunday kattalikda ishlangan o'quv yurti ramziy emblemasii tantanali tarzda topshiradi. Shundan so'ng har bir talaba nomma-nom davraga taklif etilib, qo'lga talabalik guvohnomasi va gul berilib, ko'ksiga o'quv yurti ko'krak nishoni taqib qo'yiladi. Bu tadbir musiqa sadolari va qarsaklar ostida amalga oshiriladi.

3-qism. Talabalar qasamyodi. Talabalar talabalik guvohnomasini qo'llarida tutgan holda talabalik qasamyodini jo'r bo'lgan holda aytadilar. Ular ona-Vatanga, o'z

xalqiga, o'z Prezidentiga sodiqlik, uztozlarga ehtirom, tengdoshlarga hurmat, qunt bilan faqat "alo" baholarga o'qish to'g'risida qasamyod qiladilar.

4-qism. Talabalar mahorati namoyishi.

Har bir talaba o'z qobiliyatini namoyish etadi: kimdir o'zi yozgan she'rini o'qib beradi, kimdir raqsga tushadi, yana kimdir qo'shiq aytadi yo qiziqchilik qiladi, askiya, intermediyalar namoyish etadi, kimdir davraga o'z qo'li bilan tikkan eng chiroyli ko'ylagini kiyib chiqadi, kimdir o'zi chizgan kartinasini namoyish qiladi.

5-qism. Bitiruvchi kurs talabalari qutlovi. 1-kurs talabalarini qutlash navbati bitiruvchi kurs talabalariga beriladi. Ular 1-kurs talabalariga ezgu tilaklar bildirib, o'zi ramziy sovg'alarini topshiradi. Bu marosim hazil aralash tarzda o'tishi, masalan, 1-kurs talabalariga qozon, cho'mich, kapgir yoki katta ramziy qo'ng'iroqli soat, yostiq va shunga o'xshash narsalar topshirilishi mumkin. Ular orasida bevosita mutaxassislikka dahldor narsa-ashyolar ham bo'lishi mumkin.

Xotima. Ramziy bilim kalitini topshirish marosimi. O'quv yurtining hurmat-e'tiborli keksa professor – o'qituvchisi 1-kurs talabalarini qutlab, ularga o'quv yurtining katta qilib ishlangan ramziy kalitini tantanali tarzda topshiradi. 1-kurs talabalarini davraga taklif etiladi va ular birgalikda raqsga tushadi. Keyin boshqa talabalar ham raqsga tushadi.

Diplom topshirish marosimi. O'quv yurtida o'qiyotgan har bir talaba yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishni orzu qiladi. Shu orzuga erishgan sana uning uchun eng baxtli kun hisoblanadi. Diplom olgan kun esa har bir kishining yodida umrbod qoladi.

Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida bakalavr va magistrlik diplomini topshirish anjumani quyidagicha o'tkaziladi:

Oliy o'quv yurti ochiq maydoni bayramona bezatilgan, shohsupa yonidagi baland dastaklarda O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i ko'tarilga, Oliy o'quv yurti rahbariyati, professor-o'qituvchilar, bakalavr, magistrning ota-onalari, vazirliklarning mas'ul xodimlari, xorijlik mehmonlar belgilangan o'rinlarga joylashadi. O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi yangraydi. Bakalavrlar,

magistrlar o'ng qo'lini ko'ksiga qo'ygan holda madhiyaga jo'r bo'lishadi. Rektor bitiruvchilarni qutlab, tadbirni ochadi. Vazirlik mas'ul xodimi, oliy o'quv yurti taniqli olimi, mehmonlar, ota-onalardan biri bitiruvchilarni tabriklaydi. So'ng rektor bitiruvchilarga diplomlarni tantanali ravishda topshiradi. Diplomlar topshirib bo'linganidan so'ng, suxandon – davrani olib boruvchi bitiruvchilardan biriga so'z beradi. Magistr yoki bakalavr o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lishga qasamyod qiladi.

Madaniy tadbirlari.

O'zbekistonda bo'lib o'tayotgan xalqaro madaniy bayramlar alohida e'tiborga loyiqdir. Chunki ular yordamida o'zbek madaniyati jahonga yuz tutmoqda. Mustaqillik yillarida uyushtirilayotgan “Toshkent kino festivali”, “Sharq taronalari”, “Musiqiy-simfonik festival”, “Navro'z” va “Sharq va G'arb” xalqaro teatr festivallari, Toshkent Xalqaro Badiiy ko'rgazmasi, tasviriy san'at bo'yicha xalqaro ko'rgazmalar, xalq ijodiyotining turli janrlariga bag'ishlangan ko'rik-tanlov festivallari tahsinga loyiq.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda vatanimizda o'tkazilgan har bir xalqaro anjuman yuqori saviyada, haqiqiy bayram shaklida o'tkazilmoqda. Hatto, xorijiy davlatlarning O'zbekistonda o'z sanoat mahsulotlarini namoyish qiladigan har bir anjumani ham xalqaro bayram tusini olmoqda. O'z navbatida, Mustaqil O'zbekiston Respublikasining o'z mahsulotlarini chet mamlakatlaridagi ko'rgazma va yarmarkalarda namoyish qilishi ham bayramona tarzda o'tmoqda.

“SHARQ TARONALARI” XALQARO MUSIQA FESTIVALI.

Samarqandning yuragi hisoblangan ko'hna Registon maydonida bo'lib o'tadigan an'anaviy “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalining obro'yi tobora oshmoqda. Yurtboshimiz I.Karimov tashabbusi bilan asos solingan, har ikki yilda bir marta o'tkazilayotgan an'anaviy mazkur festival o'zbek mumtoz musiqa madaniyatini jahonga yanada kengroq tanitish, ayni paytda dunyo musiqa madaniyati yangiliklarini yurtimizda namoyish etishda katta xizmat ko'rsatmoqda.

YUNESKO bu anjumanni o'z rahnamoligiga oldi. O'tgan davr ichida festival xalqaro hamjamiyatida katta obro', nufuzga ega bo'ldi.

2001-yilgi "Sharq taronalari" festivali "**Hosil bayrami**" sifatida o'tkazildi. Sahnaning ikki tarafi Samarqandning saxovatli zaminida yetishtirilgan noz-ne'matlar bilan bezatildi.

Tabiatsevarlar ko'rik-tanlovlari.

Tabiatga bag'ishlanib bayram shaklida o'tadigan tadbirlar va ko'rik-tanlovlar turlari shunchalik xilma-xilki, ularni tartibsiz o'rganish mushkul. Chunki, ular turli joylarda o'ziga xos shakl, usul, xarakterlarda, har xil nomlarda uyushtirilmoqda.

Gullar va qushlar bayrami.

O'simlik dunyosining "go'zallik malikasi" – gullar, hayvonot dunyosining eng ajoyib vakili – qushlar hisoblanadi. Shuning uchun ham odamlar tabiat, o'simlik va hayvonot dunyosining bu ikki vakilini alohida e'zozlab: qushni tinchlik ramzi, gulni esa go'zallik ramzi, deb qabul qilishgan. Balki shu sababdan bo'lsa kerak, tabiat bayramlari ichida "Qushlar bayrami" va "Gullar bayrami" alohida o'rin tutadi.

Qushlar bayrami.

Tabiatning go'zal va ajoyib in'omi qushga bag'ishlangan tadbirlar haqida so'z borganda, avval ularning bir-biridan farq qiladigan shakllari mavjudligi haqida gapirish kerak. Ularning birinchisi, bolalar orasida erta bahorda qushlar uchib kelganda uyushtiriladi, ikkinchisi, qushsevarlar o'zlari parvarish etayotgan "qanotli do'stlar" bilan ko'rik-tanlovlarda qatnashayotgan hollarda vujudga keladi. "Qush bayrami" maktab bolalari – yosh tabiatsevarlar tomonidan bahorda ilk bor qushlar uchib kelayotgan vaqtda uyushtirilishi odat tusiga kirgan. Ma'lumotlarga qaraganda, maktab o'qituvchilari orasida uyushtiriladigan "Qushlar bayrami" shimoliy hududlarda mart oxiri yoki aprel oyining birinchi yakshanba kuni o'tkazilgan. O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston tabiiy iqlimi sharoitida bu tadbir erta bahorda – mart kunlarining birida uyushtirilgan. Bu qushlarni kutib olishga bag'ishlangan tadbir-bayram quyidagicha o'tgan: qushlar uchib kelishiga bolalar zoologiya va mehnat o'qituvchilari rahbarligida oldindan tayyorgarlik ko'rishgan; qushlar uchun inlar

yasashgan, ularni tom tepalariga va daraxtlarga o'rnatishgan, jonli burchaklar tartibga solingan: maktablarda qushlarning uchib kelishiga bag'ishlangan kechalar, viktorinalar, adabiy-musiqali kompozitsiyalar uyushtirilgan.

Gul bayrami.

Davr talabiga ko'ra, umuminsoniy hodisa sifatida XX asr o'rtalarida tabiat go'zalliklarini himoya qilish dolzarb masalalariga aylangan bir vaqtda shahar va qishloqlarni gulzor va bog'zorlarga aylantirishga ko'mak beruvchi ijtimoiy-madaniy tadbir sifatida vujudga keldi. U qisqa muddat ichida keng tarqaldi. Ma'lumki, "Gul bayrami" dunyoda keng tarqalgan an'analardan biridir. Ko'pgina mamlakatlarda gullarga bag'ishlangan, jumladan, Gretsiyada – sunbul, Yaponiyada – xrizantema, Fransiyada – marvaridgul, Hindistonda – atirgullarga gul bayramlarining mohiyati va mazmunini bir-biriga yaqin bo'lsa-da, biroq ular o'ziga xos usul, rang-barang shaklda, milliy va mahalliy xususiyatlar bilan uyushtirilmoqda. An'anaviy gul (lola, sunbula, boychechak) sayillari bahor fasli dala gullari ochilganda tabiat qo'yni – sayilgohlarda uyushtirilgan bo'lsa, zamonaviy "Gul bayrami" esa shahar va qishloqlar gullarga burkangan bir paytda madaniyat va istirohat bog'larida o'tkaziladi. Gul sayillari qadimdan an'anaviy tarzda uyushtirilib kelingan bo'lsa, "Gul bayrami" 1950-yillarda shakllangan yangi bayramdir. Bu bayramda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unlashib ketgan. Bayramning rivojlanishi uchun o'zbek xalqi hayotida uzoq tarixga ega bo'lgan, tabiat qo'ynida o'tkaziladigan "Gul sayillari", "Lola sayli", "Sunbula sayli", "Gul surx" (qizil gul) sayli kabi an'analar yaxshi zamin bo'la oladi. "Gul bayrami" ning maqsadi shahar, ko'cha, hovli, muassasa, korxonalar, maktab, bog'cha va xiyobonlarni ko'klamzorlashtirib, gulzorga aylantirishga, manzarali va chiroyli gul navlarini ko'paytirishga yordam berishdir.

Mehnat tadbirlari.

Odamzod o'z taraqqiyoti jarayonida erishgan barcha yutuqlar mehnat tufaylidir. Xalqimizda "Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik", "Mehnatning tagi rohat", kabi maqollar bejiz yaratilmagan. Kishi o'z mehnatidan xursand bo'la olsa, boshqalar uchun ham zarracha foyda bera olishini anglasa,

mehnatidan faxrlanish tuyg'usini his qiladi. Aynan ajdodlarning o'z mehnatidan shodlanib, faxrlanishlari natijasida mehnat bayramlari vujudga kelgan. Mehnatni sevgan, mehnatdan yaxshi natijalarga erishgan xalqlarning mehnat bayrami ko'p bo'lgan va ular yaxshi o'tgan. Azaldan mehnatkash o'zbek xalqi hayotida mehnat bilan bog'liq bo'lgan turli marosimlar va bayramlarning mavjudligi tasodifiy emas. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mehnatni sevgan o'zbek xalqining turmushiga an'anaviy bayramlar qatoriga mehnat tadbirlari ham tabiiy ravishda singib ketmoqda. Mustaqillik tufayli tadbirkorlik, ishbilarmonlik, keng quloq ochdi.

Qishloq xo'jaligi xodimlari tadbirlari.

Ma'lumki, inson hayotini qishloq xo'jalik mahsulotlarisiz tasavvur qilolmaymiz. Shuning uchun ham dehqonchilik dunyodagi eng sharaflilik kasb hisoblanadi. Respublika aholisining 60 foiziga yaqinini qishloq mehnatkashlari tashkil etganligi sababli, qishloq mehnatkashlarining hayoti va mehnati bilan bog'liq bayramlar va marosimlarni o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Respublikaning asosiy faxri bo'lmish – paxtakorlarning hayotini yanada faravon qilish, yangi mehnat zafarlari sari ruhlantirish, turmushini go'zallashtirish, madaniy dam olishni samarali tashkil qilishda bayram va marosimlarning roli kattadir. Hozirgi davrda paxtakorlarning hayoti, mehnati va bo'sh vaqti bilan bog'liq bo'lgan ko'plab marosim va bayramlar hayot taqozosi asosida vujudga kelmoqda. Bu boradagi ilg'or tajribalarni o'rganish va eng yaxshi an'analarni keng yoyish dolzarb masaladir. Darhaqiqat, taraqqiyot shunday tadbirlarni oldimizga qo'ymoqdaki, har bir mehnat jamoasining dam olishini tashkil qilish bilan bir qatorda, ularning hayoti, mehnati va bo'sh vaqtlari maroqli, mazmunli o'tishi uchun maxsus tantanalar, marosimlar va bayramlar tashkil qilish zarur bo'lmoqda. Albatta. mamlakatning ko'pchilik qismini tashkil qiladigan va uning asosiy faxri bo'lgan o'zbek paxtakorlari ham o'z mehnati, dam olishi va turmushi bilan bog'liq, muntazam uyushtirilib turiladigan xususiy bayramlariga ega bo'lishi tabiiydir. Ayni vaqtda paxtakorlarning bunday bayram va an'analari shakllana boshladi.

III. bob. Madaniy tadbirlarning shakllari, turlari va ularni tashkillashtirish.

3.1. Madaniy tadbirlarning shakllari va turlari.

Madaniy-Ma'rifiy faoliyat va tadbirlar

Madaniy-ma'rifiy faoliyati ijtimoiy sohaning muhim qismi bo'lib, uning bosh maqsadi – komil insonni shakllantirishga xizmat qilishdir.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat – aholining ma'naviy kamol toptirish, madaniy saviyasini oshirish, bilimni o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, bo'sh vaqtini samarali o'tkazishga ko'mak beruvchi ijodiy-tashkiliy ishlar majmuasidir.

Ijtimoiy-ma'naviy hayotda madaniy-ma'rifiy faoliyat olib boruvchi muassasalarining tutgan o'rni juda katta. Ular aholining ijtimoiy-ma'naviy markazi sifatida ko'p qirrali madaniy faoliyat olib boradi.

Respublikamizda madaniy-ma'rifiy sohasini shartli ravishda uchga bo'lish mumkin:

1. Madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat (keng ma'noda) – barcha tashkilotlarning va turli jamoalarning madaniy-ma'rifiy faoliyati. Madaniyat hayotning tarkibiy qismi, usiz turmushning hech bir sohasini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Eng yuqori tashkilotlar o'z vazifasini bajarish bilan bir qatorda ular ham madaniy-ma'rifiy faoliyatga juda katta e'tibor qaratishadi. O'zbekiston rahbariyatining ma'naviyatini rivojlantirish – davlatning bosh vazifasi deb qarashi – bu sohani jiddiy taraqqiy etishiga zamin yaratdi.

O'zbekiston Prezidentining «Madaniyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risidagi (1996) Farmonida «Ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy, ustuvor yo'nalishi deb hisoblansin», deb qayd qilindi.

«Ayrim katta-kichik rahbarlar... - deyiladi ushbu farmonda, - ma'naviyatning asl ma'nosini tushunib yetmasligi tufayli, unga ikkinchi darajali ish sifatida qarashmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarga bo'lgan bunday e'tiborsizlik kelajagi

buyuk demokratik, ozod davlat qurishdek ezgu maqsadimiz ro'yobi uchun mutlaqo ziddir». Farmondagi bu fikrlari turli darajadagi rahbarlarni xalq ma'naviyatiga jiddiy e'tibor berishga undadi.

Milliy mafkuraga bag'ishlangan (6-aprel 2000 yil) anjumanda Prezidentimiz rahbar xodimlar, eng avvalo, ma'naviyat, mafkura, madaniyat bilan shug'ullanishi darkor ekanligini ta'kidladi.

Barcha darajadagi rahbarlar ma'naviyat bilan bevosita shug'ullana boshlashi – barcha joylarda keng ko'lamda ma'naviyatni jonlantirishga imkoniyat yaratmoqda. Ma'lumki, sho'rolar davrida madaniyat bilan uchinchi rahbar (yoki rahbarning uchinchi o'rinbosari) ideologiya ishning bir qismi sifatida shug'ullanar edi. Ko'pgina mustaqillikka erishgan davlatlarda hozirda ham shunday bo'lib qolmoqda. Bizning Respublikamizda esa Prezidentimiz Farmoni asosida: «joylarda ma'naviyat bilan bog'liq ishlarning amalga oshirilishi uchun butun mas'uliyat shaxsan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyat, shahar va tuman hokimlari, respublikamizdagi barcha vazirliklar, idoralar, tashkilotlar birinchi rahbarlarining barcha vazirliklarm idoralar, tashkilotlar birinchi rahbarlarning zimmasiga yuklatildi. Prezidentimiz esa barcha rahbarlarga shaxsiy namuna ko'rsatib, o'zini «ma'naviyatning bosh – homiysi va himoyachisi» deb e'lon qildi.

Eng yuqori tashkilotlardan tortib, quyi jamoalarigacha o'z ishining asosiy qismi sifatida madaniyat va ma'naviyat bilan shug'ullanadi. Masalan, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan jamoa xo'jaligi bo'lishsa-da, ularning hayotida zaruriy ma'naviy ehtiyoj sifatida to'y-marakalar, bayramlar, tomoshalar ham uyushtirilib turiladi. Yoki aviazavod ishchilari asosiy ish vaqtida samolyotsozlik bilan shug'ullanishadi, biroq ular bo'sh vaqtida ma'ruzalar tinglashadi, konsertlar tomosha qilishadi, raqs kechalarida qatnashishadi, ko'rik-tanlovlarda ishtirok etishadi. Demak, bu quyi tashkilotlarda ham o'zining asosiy vazifalarini bajarish bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-hordiqiy faoliyat bilan ham shug'ullanishadi.

Nomoddiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi ma'naviy-ma'rifiy muassasalar faoliyati.

O'zbekistonda madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat tashkilotlari va muassasalari tizimida ikki yo'nalish paydo bo'lmoqda:

1. Davlat tashkilot va muassasalari faoliyati.
2. Nodavlat va jamoat tashkilotlari faoliyati.

Davlat tasarrufidagi tashkilotlarga:

- a) Madaniyat ishlari vazirligi tizimidagi tashkilotlar;
- b) Davlat hissadorlik jamiyatlarim kompaniyalar, birlashmalar:

«O'zbekkino» DAK, «O'zteletradio», kompaniyasi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi, «O'zbeknavo» GKB, «O'zbekteatr» IIB, «O'zbekraqs», «Musavvir» ilmiy-ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi, «O'zbekmuzey» birlashmasi, «O'zbekturizm» hissadorlik kompaniyasi va boshqalar kiradi.

Nodavlat va jamoat tashkilotlariga ega jamg'armalar, Ijodiy tashkilotlar, jamiyatlar va uyushmalar, madaniy-ma'rifiy markazlari kiradi.

Madaniy-ma'rifiy markazlar soni ham ko'paymoqda: Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi, O'zbekiston huquqiy madaniyat markazi, Ijtimoiy fikr jamoatchilik markazi, O'zbekiston ijtimoiy falsafa va milliy tiklanish markazi, O'zbekiston baynalminal madaniyat markazi, Milliy-madaniy markazlar (rus, ukrain, qozoq, koreys kabi yuzga yaqin markazlar) va xalqaro aloqalar jamiyatlari.

Nomoddiy va madaniy-ma'rifiy ishlar bilan mashg'ul bo'ladigan quyidagi muassasalar faoliyatini diqqatga sazovordir.

- a) ommaviy axborot vositalari (radio, TV, matbuot);
- b) ta'lim-tarbiya muassasalari (bolalar bog'chasi, maktab, oily va o'rta maxsus ta'lim yurtlari);
- c) san'at muassasalari (teatr, kinoteatr, konsert tashkilotlari);
- d) madaniy-ma'rifiy muassasalar (klub, aholi dam olish markazlari (madaniyat uyi), istirohat bog'I, kutubxona, muzey...)
- e) ijodiy uyushmalar (yozuvchilar, rassomlar, kompozitorlarm teatr arboblari...)

Madaniy-ma'rifiy muassasalar.

Tub ma'noda ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-hordiqiy. ijodiy ishlar bilan shug'ullanadigan maskanlar faoliyati. Ularga eng avvalo, kutubxona, muzey, madaniyat uyi, istirohat bog'I, madaniy dam olish maskanlari faoliyati kiradi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar (kutubxona, muzey. madaniyat uyi, istirohat bog'I, madaniy dam olish maskanlari) – aholining ma'naviy kamol toptirish, madaniy saviyasini oshirish, bilimni o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, bo'sh vaqtini samarali o'tkazishga ko'mak beruvchi tashkilotlar.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarning bosh vazifalari:

- kishilarni bo'sh vaqtida ma'naviy boyitish,
- aholini madaniy, ma'rifiy, ijodiy, hordiqiy faoliyatlari uchun sharoit, imkoniyat va qulayliklar yaratish;
- joylarda xalq madaniyatini taraqqiy ettirish, jumladan, xalq ijodi, pedagogikasi, xalq odatlari, marosimlari, bayramlari, xalq o'yinlari va dam olish shakllarini targ'ib qilish va rivojlantirish.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarining **asosiy tamoyillari** quyidagilardan iborat:

- hayotiylik va haqqoniylik,
- xalqchilik va milliylik,
- ommaviylik va ixtiyoriylik,
- ilmiylik va ijodkorlik...

Madaniy-ma'rifiy muassasalar o'z faoliyati komil insonni shakllantirishda o'ziga xos vazifalarini, ya'ni, uzluksiz – ta'lim tarbiya, havaskorlik ijodi va mazmunli dam olish kabilarni uyushtirish orqali olib boradi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarining asosiy sohalari:

- madaniy-hordiqiy faoliyat. Aholining dam olishni tashkil etish tajribasi,
- axboriy-ma'rifiy faoliyat. Uzluksiz ta'limni tashkil etish.
- Havaskorlik ijodi va ijodiy jarayonli ishlarni tashkil qilish
- badiiy-ommaviy tadbirlar uyushtirish borasidagi faoliyat

Madaniy-ma'rifiy muassasalar asosan quyidagi vazifalarni bajaradi:

- aholiga uzluksiz ta'lim berish va ular o'rtasida tashviqot va targ'ibot ishlarini olib boorish;

- xalq havaskorlik ijodini o'stirish;

- mehnatkashlarning mazmunli dam olishini tashkil qilish.

Shundan kelib chiqib, madaniy-ma'rifiy muassasalarning **asosiy funksiyalari** quyidagilardan iborat:

• **Ma'rifiy funksiyasi** – (Kishilarning bilimdonligini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish).

• **Ijodiy funksiyasi** – (Ommaning ijodkorligi va tashabbuskorligini taraqqiy ettirish)

• **Rekreatsiya funksiyasi** – (Aholining madaniy dam olishini uyushtirish).

• **Muloqot funksiyasi** – (Kishilarning umumiy qiziqishi asosida uchrashuv, fikr almashuv, o'zaro boyishni uyushtirish).

Madaniy tadbirlar tasnifi va ahamiyati

Ma'lumki, madaniy-ma'rifiy faoliyatining ish shakllari xilma-xil va juda ko'p. Ular haqida to'liq va tizimli tushunchaga ega bo'lish uchun maxsus tasnif (klassifikatsiya) darkor. Ilmiy adabiyotlarda bir necha xil tasnik yoki turkumlash mavjud. Ular ichida ikkitasi haqiqatga yaqindir: birinchi xil tasniflashga madaniy-ma'rifiy ish shakllarida qatnashadigan kishilarning soni asos qilib olinadi. Ular quyidagilardan iborat: yakka (individual) guruhli va ommaviy shakllar.

1. **YAKKA SHAKLLAR** - mutaxassis va tinglovchi bilan individual suhbat, u yakka amaliy mashg'ulot sifatida namoyon bo'ladi.

2. **GURUHLI SHAKLLAR** – taxminan 7-30 kishi qatnashadigan tadbirlar, ular munozara, seminar, suhbat, ekskursiya, badiiy havaskorlik kollektivlari, mashg'ulotlari kabilarni o'z ichiga oladi.

3. **OMMAVIY SHAKLLAR** – katta sonli jamoaga mo'ljallangan tadbirlar: ma'ruzalar, savol-javob kechalari, og'zaki jurnallar, mavzuli kechalar, ommaviy tomoshalar, bayramlar va hokazolardan vujudga keladi.

Bu kabi ommaviy shakllar madaniy-ma'rifiy ishlarning asosiy qismini tashkil qiladi.

Ikkinchi tasnif, madaniy-ma'rifiy ish shakllarida ta'sirchan vositalardan va usullardan foydalanish asosida vujudga keladi. Bu xil tasnif ko'proq madaniy-ma'rifiy muassasalardagi axborotga boy ma'rifiy targ'ibot-tashviqot ishlarga xosdir. Ular uchga bo'linadi: monologik, diologik va kompleks shakllar.

1. **MONOLOGIK SHAKLLAR** deganda, notiqning asosan og'zaki – «jonli» so'zi hamda boshqa ta'sirchan vositalar orqali auditoriyaga axborotlar beradigan tadbirlar tushuniladi. Masalan: ma'ruza, axborot kabilar.

2. **DIOLOGIK SHAKLLAR** deganda, tadbirlarning muloqot, suhbat, fikr almashishlaridan tashkil topishi tushuniladi. Unga suhbat, munozara, uchrashuv, savol-javob kechalari kiradi.

3. **MAJMUA (KOMPLEKS) SHAKLLAR** deganda, monologik va dialogic nutqlar ishlatishi bilan birga boshqa ta'sirchan vositalardan ham foydalanish mumkin bo'lgan tadbirlar nazarda tutiladi. Masalan: og'zaki jurnal, mavzuli kecha va boshqalar.

Hozirgi madaniy-ma'rifiy ishlarda keng tarqalgan shakllar bu birinchi turkumlashdagi ommaviy va kompleks shakllardir. Ular birlashib «OMMAVIY TADBIRLAR»ni vujudga keltiradi. Tadbirlar qiziqarli, ta'sirchan, maroqli, bo'lishi uchun ko'proq badiiy vositalardan foydalaniladi. Shuning uchun ommaviy tadbirlar tushunchasiga badiiy degan so'z ham qo'shiladi. Natijada bu «Badiiy-ommaviy tadbirlar» tushunchasiga aylanadi. Ular madaniy-ma'rifiy muassasalarning badiiy faoliyatini yaxshiroq ochishga yordam beradi.

Tadbirlarda keng qamrovli ishlar olib boriladi va kishilarning ishdan bo'sh vaqtida, kerakli axborotlar berish, badiiy-estetik zavqlantirish, madaniy-ijodiy ishga jalb qilish hamda ularning mazmunli hordiq chiqarishlari uchun xizmat qiladi. Shuning uchun unga kengroq tushuncha va atama zarur bo'lmoqda. Ularni keng qamrovi «madaniy tadbirlar» deb «ommaviy tadbirlar» deb atasak yaxshi bo'ladi.

Kezi kelganda shuni aytish lozimki, «ommaviy tadbirlar», «badiiy tadbirlar», atamalariga ham murojaat qilish mumkin.

Madaniy tadbirlarga turli kechalar, badiiy kompozitsiyalar, badiiy chiqishlar va diskoklub dasturlari, teatrlashtirilgan konsert va tomoshalar, xalq marosimlari va sayillari, ommaviy bayramlar, ko'rik tanlovlar kabi ko'plab shakllar kiradi. Tadbirlar madaniy-ma'rifiy muassasalarning asosiy va eng yirik shakllarini o'z ichiga qamrab oladi.

Madaniy tadbirlarning eng afzallik tomoni shundaki, ular madaniy muassasalarning keng qamrovli faoliyatini o'zida mujassamlashtiradi. Jumladan, ulardan ma'rifiy targ'ibot-tashviqot ishi, havaskorlik ijodi, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil qilish kabi faoliyatlar uyg'unlashib ketadi. Tadbirlarning har bir shakliga, masalan, ommaviy bayramlar, an'anaviy marosimlar, teatrlashtirilganda ularda ma'rifiy xarakterdagi mazmunni, havaskorlik ijodining natijalarini, badiiy-estetik zavqlanish va madaniy hordiq chiqarish uchun yaratilgan qulayliklarni yaqqol sezish mumkin. Shu sababli, tadbir madaniyat-ma'rifiy muassasalardagi barcha faoliyatining umumlashtirilgan ko'zgidir.

Ommaviy tadbirlarni tarbiyaviy va madaniy ish sifatida barcha davlat muassasalari, kasaba uyushmalari, yoshlar uyushmalari, ommaviy axborot vositalari, san'at muassalari, mudofaa tashkilotlari, mahalla qo'mitalari, sport ekskurtsiya tashkilotlari ham uyushtirishadi. Ular o'z ishining bir bo'lagi sifatida (asosiy vazifadan tashqari) badiiy-ommaviy tadbirlar orqali tarbiyaviy, madaniy-ma'rifiy ishni, havaskorlik ijodini va mehnatkashlarning dam olishini tashkil qiladilar. Ma'lumki, mehnat jamoalarining faoliyatida turli madaniy tadbirlar, tomoshalar, marosimlar tashkil qilinishda. Shunday ekan, madaniy tadbirlar – bu barcha jamoalar faoliyati uchun zarur bo'lib, ularning ma'naviy hayotida muhim o'rin egallaydi.

Madaniy tadbirlar metodikasi (uslubiyati)

Madaniy tadbirlar metodikasi (uslubiyati) nazariy bilimlarni o'rganish hamda amaliyotda to'plangan ish tajribasini umumlashtirish, tadbir mavzusi, g'oyasi va mazmuni asosida vujudga keladi. Ma'lumki, madaniy tadbirni uyushtirish uchun eng avvalo, mavzu aniqlanadi. Mavzu (tema) – fikr-mulohaza yuritish uchun masalalar, muammolardir. Mavzu aniqlangach, g'oya, ya'ni tadbir nima maqsadda o'tkazilayotganligi haqida o'ylashi lozim. Madaniy tadbirni uyushtirish jamiyat rivojlanishiga xizmat qiladi. Buning uchun jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi, ruhlantiruvchi va olg'a boshlovchi kuchli fikrlar zarur. Kuchli fikrlardan g'oya vujudga keladi. G'oya – ilgari suriladigan asosiy fikr, maqsaddir. Asosiy fikr, maqsad nimaligi, nimaga chorlash, nima uchun kurashga chaqirish tadbir g'oyasida ifodalanadi.

Jamiyatni rivojlantirishga qaratilgan eng kuchli fikr-g'oyalarning sarasidan **milliy g'oya** vujudga keladi. Milliy g'oya esa **milliy mafkuraning** o'zagini tashkil etadi. Milliy g'oya jamiyat rivojlanishiga xizmat qilishi uchun barcha vosita, usul va shakllardan samarali foydalanishimiz zarur. Ezgulikka xizmat qiladigan milliy g'oya va milliy madaniyat uyg'unlashgandagina, ular jamiyat ravnaqiga xizmat qiladi. Tadbirlar mazmunida milliy g'oya va shakllarida madaniyat va uning eng yaxshi turlari uyg'unlashgandagina a'lo samaraga erishiladi.

Asosiy g'oya tadbir mazmunini shakllantiradi va rivojlantiradi. Mazmun – bu tadbirning umumiy ma'nosi, voqealar zanjiri va u asosiy voqealar orqali rivojlanib boradi. Tadbirlar mavzusi, g'oyasi va mazmuniga mos uslubiyat, ya'ni kerakli vositalar, usullar va shakllardan foydalanish a'lo samara beradi.

Madaniy tadbirlar metodlari

Madaniy tadbirlarning metodikasi (uslubiyati) haqida so'z boshlashdan oldin “metod” (usul), “metodika” (uslubiyat), “metodologiya” haqida tushunchalarga aniqlik kiritish lozim.

“Metod” (usul) so'zining ma'nosi muayyan faoliyatda maqsadga erishish uchun topilgan, foydalanilayotgan usul, yo'l-yo'riq, demakdir.

“**Metodika**” (uslubiyat) deyilganda – maqsadga erishish vositalari, usullari va shakllari haqidagi bilimlar majmuasi hamda ulardan amaliy foydalanish tushuniladi.

Metodologiya – asos, tayanch bo’ladigan fikr, nazariya, ta’limot.

Madaniy-ma’rifiy faoliyatning metodologiyasi – jahon va sharq mutafakkirlari va hozirgi zamon olimlarining madaniyat, ma’naviyat, ma’rifat, ijodiyot haqidagi fikr, nazariya, ta’limotlari hamda O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va shu sohaga oid Respublika Prezidenti Farmonlari, Oliy Majlis Qonunlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlariga tayanadi.

Madaniy tadbir metodlari. Madaniy-ommaviy tadbirlar – bu tarbiyaviy, ma’rifiy, ijodiy va hordiqiy ishlarning o’ziga xos birlashuvi natijasida vujudga kelgani uchun ularda ko’plab metodlardan foydalaniladi. Madaniy-ommaviy tadbirlarda qo’llaniladigan metodlarni quyidagi guruhlarga bo’lib o’rganish mumkin:

- a) **Tarbiyaviy metodlar;**
- b) **Ta’limiy (ma’rifiy) metodlar;**
- c) **Ijodiy va hordiqiy metodlar;**
- d) **Tashkiliy metodlar va hokazo.**

Ish jarayonida bu metodlar bir-birini to’ldirib, o’zaro bog’lanib ketadi.

Tarbiyaviy Metodlar. Madaniy-ommaviy tadbirlar – tarbiyaviy jarayon bo’lgani uchun ularda pedagogikaga oid tarbiyaviy metodlardan foydalanish qonuniydir. Tarbiyaviy metodlar (ishontirish, namuna ko’rsatish, taqdirlash, tanqid qilish kabilar)dan madaniy-ommaviy tadbirlarda o’ziga xos xususiyatlar bilan ijodiy foydalaniladi.

Tarbiyaviy ishlarda **ishontirish** metodining asosiy vazifasi auditoriyaga emotsional ta’sir ko’rsatib, tadbirning mazmunini ishonarli, haqqoniy qilib tuzishdan iboratdir. Omma tashkilotchilarning fikriga qo’shila olmasa, berilgan ma’lumotlarga ishonmasa, u holda tarbiyaning maqsadi amalga oshmaydi. Bunga yo’l qo’ymaslik uchun tadbirda hujjatlar, dalillar, ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari, siyosiy arboblardan va olimlarning fikrlari hamda statistic ma’lumotlardan foydalanish kerak. Ular haqqoniy, mantiqli, ishonarli va qiziqarli shaklda aks ettirilishi muhim ahamiyatga

ega. Tadbir mazmuni ishonarli bo'lishi uchun uni to'qima asosida vujudga keltirmasdan, balki real hayotda bo'lib o'tayotgan haqqoniy va hujjatli materiallar asosida tuzish lozim.

Namuna metodi. Orqali kishilarning yaxshi fazilatlari tarannum etiladi. Vatanimizning asl o'g'lonlari va mahalliy sharoitda samarali ish ko'rsatayotgan mehnat ilg'orlarining faoliyatini boshqalarga namuna qilib ko'rsatish ommaviy tadbirlarning tarbiyaviy samarasini oshirib, ulardan o'rnak olishga, halol ishlashga undaydi. Tadbirlarda ilg'or kishilarning mehnat faoliyati va undagi yaxshi fazilatlar haqida hikoya qilish, tabiiy ravishda ommaning shu muayyan shaxsga nisbatan hurmatini uyg'otib, shunday ishlashga, yashashga istak paydo qiladi. Bu – namuna ko'rsatish metodining asosiy maqsadidir.

Taqdirlash metodining asosiy vazifalaridan biri mehnatkashlar erishgan g'alabani nishonlab, ma'naviy taqdirlaydi. Tadbirlarda mehnat g'oliblarini faxriy yorliqlar, maqtov qog'ozlari bilan mukofotlash, ularni o'z mehnatidan manfaatdor bo'lishga, yanada yaxshiroq ishlashga, xalqqa halol xizmat qilishga undaydi.

Madaniy-ommaviy tadbirlar vositalari.

Maxsus materiallarsiz uy qurib bo'lmaganidek, kerakli vositalarsiz tadbir ham vujudga kelmaydi. Agar imorat sement, yog'och, mix, oyna va shunga o'xshash materiallar asosida vujudga kelsa, madaniy-ommaviy tadbirlarni ham o'ziga xos san'at va texnik vositalarsiz tashkil qilib bo'lmaydi. Vositalar tadbirining tarkibiy qismi asosiy komponentlari va mexanizmlari sifatida xizmat qiladi. Ommaviy tadbirlarni vositalarsiz mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Pedagogikada ko'proq g'oyaviy emotsional vositalar degan tushuncha ko'proq ishlatiladi. Bunday deganda, kishilarning ongiga va hissiyotiga ta'sir etuvchi va bilim olish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi g'oyaviy – hissiy qurollar, asbob-uskunalar, materiallar va boshqalarni tushunamiz.

Madaniy-ommaviy tadbirlarda qo'llaniladigan vositalarning qamrovi keng va soni ko'p. Jonli so'z, ilmu-fan, matbuot, adabiyot va san'at, odat, ma'rifat, ko'rgazmali

qurollar, har xil texnik apparatlar kabi vositalardan keng foydalanish har qanday tadbirning sermazmun va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Madaniy-ommaviy tadbirlar tashkilotchisi mavjud bo'lgan barcha ta'sirchan vositalardan yaxshi xabardor bo'libgina qolmasdan, balki ulardan samarali foydalanish usullarini ham bilmog'i kerakdir.

Quyida madaniy-ommaviy tadbirlarda foydalanishi mumkin bo'lgan asosiy vositalarga to'xtalamiz:

Jonli so'z – asosiy ta'sirchan vositalardan biridir. Jonli so'z klub ishi shakllarining hammasida eng asosiy vosita sifatida qo'llanilib, o'zgarmas component bo'lib xizmat qiladi. Madaniy-ommaviy tadbirlarda jonli so'z faqatgina mazmunni yoritishda xizmat qilmasdan, balki mazmun bilan ommaviy harakatlarni ham bir-biriga uyg'unlashtiradi. Aynan jonli so'z voqea ma'nosini tomoshabinga yetkazadi. Jonli so'zning yana bir afzallik tomoni, ba'zan fikrni hech qanday ta'sirchan vosita tomoshabinga yetkazib bera olmaydigan daqiqalarda u yordamga keladi.

Ommaviy tadbirlarda boshqaruvchi so'zi asosiy o'rinni egallaydi, ba'zi hollarda esa kechaning boshidan oxirigacha yetakchi vosita sifatida qo'llaniladi. U kirish so'z shaklida yoki muqaddima sifatida yaxshi xizmat qilishi mumkin.

Badiiy so'z ham ta'sirchan vositadir. Badiiy so'z aytilmoqchi bo'lgan fikrni badiiy emotsional tarzda yetkazib berishga xizmat qiladi. Klub kechalarida badiiy so'zning she'r, monologlar kabi turlaridan keng foydalaniladi. Badiiy o'qish boshqa materiallar bilan bir vaqtda ijro etilishi mumkin. Masalan, she'r o'qilayotgan bir vaqtda she'rning ma'nosiga mos keladigan kino parchalari ko'rsatiladi.

Badiiy so'zni vujudga keltirish uchun madaniy asarlardan namunalar keltirishning o'zi kamlik qiladi. Yozma she'rni jonli badiiy so'zga aylantirib ijro etish uchun ijrochining she'rdagi fikriga munosabati, ruhiy kechinmalari, his-hayajoni talab qilinadi. Aks holda she'rning oddiy so'zdan farqi qolmaydi. Yana shuni ham unutmaslik kerakki, chuqur anglash, fikrning tub mazmuniga yetib, his-hayajon bilan aytilgan har bir jonli so'z badiiy so'zga aylanadi.

Ilm-fan natijalaridan tadbirlar mazmunida foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. “Ilmu-fan – taraqqiyot negizi”. Deyishadi. Aniqrog’I, ilmu fanda paydo bo’lgan g’oyalar, konsepsiyalar, ta’limotlar hayotni taraqqiy ettiradi. Shuning uchun biz ilmu fan sohasida jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan fikr, g’oya, ta’limotlardan tadbirlarda keng foydalanish kerak.

Eski davrda shakllangan bilimlar bilan yangi jamiyat qurib bo’lmaydi. Yangi jamiyatga yangi bilimlar, yangi fanlar zarur. Ayniqsa, falsafiy bilimlardan foydalanish o’ta zarur bo’lmoqda. Axir falsafa qadimgi davrdan buyon insoniyatning eng “ota”siku. Buning ustiga ajdodlar yaratgan falsafiy fikrlar nafaqat vatanimizda, balki jahon sivilizatsiyasiga hissa qo’shgan. Demak, eng avvalo ajdodlar yaratgan falsafiy fikr, g’oyalar asosida (yunon, rim, chin, hind falsafasi qatori) milliy falsafani tadbirlarda qo’llash lozim. Shuningdek, tadbirlar orqali jahon falsafasidagi eng ilg’or g’oyalarni o’zlashtirish zarur. Chunki, uni bilmasdan jahon hamjamiyatida munosib o’rin egallab bo’lmaydi.

Adabiyot insoniyat taraqqiyotida muhim rol o’ynagan. XX asrgacha asosiy g’oyalar faqat adabiy asarlar orqali xalqqa yetib borgan. Musiqa, kino, teatr san’atlari va madaniy tadbirlarning rivojlanishi ham ko’p jihatdan adiblarga bog’liq. Adiblar bu ijod turlarining asosi – qo’shiq, she’r, pyesa, ssenariy, librettolarni yaratadi. Ushbu adabiy janrlar yaxshi foydalanilmasa, tadbir negizi bo’sh bo’lib qolaveradi.

San’atda xalqning ongi va qalbini qamrab oluvchi sehrli kuch borligini inkor qilib bo’lmaydi. Bu mo’jizaviy imkoniyatdan xalqimiz ongini o’stirish va ruhini tetiklashtirishda tadbirlar orqali samarali foydalanish kerak.

Fan-texnika taraqqiyoti natijasida qo’l mehnati tobora mexanizatsiyalashgan va bo’sh vaqt tobora ko’payayotgan hozirgi paytda aholining madaniy dam olishini tashkil etish muhim masalalardan biriga aylandi. Binobarin, bo’sh vaqt zamirida shaxs va butun jamiyatning rivoji, kishilarning ma’naviy boyishlari, sog’lom bo’lishlari, umrlariga umr qo’shilishi uchun, ular hayotini yanada mazmunli va rang-barang qilish uchun cheksiz imkoniyatlar mavjud.

Bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish masalalariga to'xtar ekanmiz, eng avvalo, bo'sh vaqtning shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyoti uchun zarur omillar qatorida turadigan bebaho manba ekanligini ta'kidlash lozim. Chunki bo'sh vaqt ijtimoiy boylik hisoblanib, shaxs va ma'naviyatning rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Pirovard natijada bo'sh vaqt mehnat unumdorligini orttirishda muhim omil hamdir. "Yaxshi dam – mehnatga hamdam", deydi xalqimiz. Agar inson qanchalik yaxshi va unumli mehnat qilsa, shunchalik samarali va mazmunli dam olishga ehtiyoj sezadi. O'z navbatida shu narsa e'tiborga molikki, yaxshi hordiq chiqara olmagan kishi ko'ngildagidek mehnat qila olmaydi. Shunday ekan, bo'sh vaqtdan samarali foydalanish kishilarning mehnat jarayonida sarf bo'lgan kuch-quvvatlarni tiklash, sog'liqlarini mustahkamlash, ruhiyatlarini tetiklashtirish demakdir.

Toshkent, Farg'ona, Marg'ilon, Qo'qon sanoat korxonalarining bazalarida o'tkazilgan tadqiqotlarga qaraganda, dam olish zonalarda maxsus uyushtirilgan dam olish kunlaridan keyin ba'zi ishchilarda mehnat unumdorligi odatdagidan 26-31 % yuqori bo'lgan, ya'ni erkaklarda 26 %, ayollarda 31 %. San'atshunoslik Butunittifoq ilmiy tekshirish instituti o'tkazgan sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, teatr, muzey, klub kabi madaniyat muassasalari tadbirlariga tez-tez qatnashib turadigan yoki sport bilan shug'ullanadigan kishilarning mehnat unumdorligini boshqalarga, ya'ni bo'sh vaqtini bekor o'tkazadiganlarga qaraganda 10-15 % yuqori bo'lar ekan. Inson hayoti, mehnati, turmushini o'zaro bog'lab turgan va ularning taraqqiy etishida muhim rol o'ynagan, bo'sh vaqtni qadrlamaslik, undan oqilona foydalanmaslik, mehnatkashlar dam olish jarayoni uchun kerakli shart-sharoitlarni o'z vaqtida yaratmaslik natijasida keying 10 yilliklar davomida, ya'ni turg'unlik yillarida jiddiy ijtimoiy muammolar vujudga keldi.

Bo'sh vaqtni yetarlicha baholay olmaslik va undan oqilona foydalana bilmaslik natijasida vujudga kelgan muammolar barcha sohalarda o'z aksini topdi. Joylardagi ko'pgina salbiy hodisalar, ishlab chiqarishdagi rejaning bajarilmasligi, mahsulotlar sifatining pastligi, mehnat intizomining buzilishi, ishdan keying dam olish kunlaridagi ichkilikbozliklarning sodir bo'lishi, kasallarning ko'payishi, ko'pgina

jamoalarda nosog'lom muhitning vujudga kelishi, oilalardagi urush-janjallar tufayli er-xotinning ajralishlarini ko'payishi, bolalar tarbiyasining buzilishi, ularning bezorilik ko'chasiga kirishlari ham ma'lum ma'noda aholi bo'sh vaqtiga yetarlicha e'tibor bermaslikning oqibatidir.

Insonning ichki ruhiy olami, psixologiyasi shunday tuzilganki, u hayot go'zalliklaridan bahra olishga, lazzatlanishga intiladi. Buning uchun esa bo'sh vaqt qulay imkon. Ammo kishilarning bo'sh vaqtda rohatlanishi, bahra olishi maxsus shart-sharoitlar yaratilmaganligi sababli, ba'zilar bunga sun'iy yo'llar, ya'ni alkogolli ichimliklar iste'mol qilish orqali erishishga intiladilar. Bo'sh vaqtda kishilarning spirtli ichimliklar iste'mol qilishlari, birinchidan, ularning sog'ligiga zarar yetkazsa, ikkinchidan, oila va jamoada nosog'lom vaziyat kelib chiqishiga, oxir-oqibat jinoiy ishlarga yo'l ochib berishi uchun zamin yaratishi mumkin.

Hozirgi vaqtda ma'naviy, madaniy-ma'rifiy ishlarga e'tibor berish yo'li bilan ichkilikbozlikka qarshi kurash olib borish o'zining samaralarini bermoqda. Biroq, buni o'zi kamlik qiladi. Shuning uchun ichkilikbozlikni asta-sekin hayotdan siqib chiqaradigan madaniy dam olish shakllarining keng ommaga tushuntirib borishimiz kerak. Xususan, joylarda shunday madaniy sharoit va muhit yaratmoq kerakki, odamlar bo'sh vaqtida hayotdan sun'iy emas, balki tabiiy lazzat ola bilsinlar, tabiat go'zalliklaridan, xalq san'atidan, marosimlardan, qolaversa, o'z ijodiy ishi mahsullaridan rohatlana bilsinlar. Darhaqiqat, mehnatkashlar va ayniqsa, yoshlar bo'sh vaqtdan samarali foydalanish – eng muhim vazifalardan biri bo'lib, hozirgi paytda unga har qachongidan ham ko'proq e'tibor berilmoqda. Bo'sh vaqtdan oqilona foydalanishdagi, yangi istiqbolli yo'llarini izlashni, mavjud rezervlar va imkoniyatlardan yanada to'laroq foydalanishni kun tartibiga qo'yishni, joylardagi klub muassasalari, sport inshootlari va boshqa dam olish maskanlari shohobchalarini rivojlantirishni, ularning ish saviyasini yaxshilash uchun moddiy texnika bazasini mustahkamlashni taqozo etadi.

Shunday qilib, bo'sh vaqt, birinchidan, madaniy dam olish, hordiq chiqarish, sarflangan kuchlarni tiklash, ikkinchidan – madaniy-ma'rifiy boyliklarni egallash,

uchinchidan, ijodiy va jismoniy faoliyatlar, ya'ni fizkultura, sport va badiiy havaskorlik bilan shug'ullanish, to'rtinchidan, ko'ngilli jamoat ishlari, ijtimoiy foydali mehnat turlari – jamiyat ravnaqi uchun foydali ish, xizmat qilish zarur.

3.2. Madaniy tadbirlarni tashkillashtirish.

Madaniy tadbirlarni uyushtirishda klub, madaniyat uylari va saroylari, madaniyat istirohat bog'larining roli oshib borishi qishloq madaniyati hayotida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. O'zbekistondagi ilg'or qishloq markazlari – guzarida madaniyat majmualari vujudga kelib, ular o'zlarida ko'plab tashkilot va muassasalarini birlashtirmoqda. Ular tarkibiga: 1) qishloq klubi (madaniyat uyi);

2) **madaniyat va istirohat bog'i**

3) **kutubxona**

4) **jamoalaridagi ma'naviyat xonalari**

5) **maktablar va bolalar bog'chalari**

6) **xalq muzeylari**

7) **maishiy xizmat ko'rsatish tashkilotlari**

8) **sport inshootlari**

9) **sog'liqni saqlash muassasalari**

10) **choyhona va dala shiyponlari**

11) **jamoat tashkilotlari**

12) **maishiy inshootlar va hokazolar kiradi**

Tashkilotchilik tartibni ta'minlashda o'ta muhim o'rin egallaydi. Tashkilotchilik bo'lmasa hayotda kaos, tartibsizlik, anarxiya bo'ladi. Uningsiz jamiyatni eng kichik bo'g'inidan, to eng yuqori organlarigacha: oila, jamoa, etnos, millat, mamlakat, xalqaro uyushmalar o'z ishlarini amalga oshira olmaydi. Tashkilotchilik to'g'ri yo'lga qo'yilgan joyda ijtimoiy-tarixiy hayot yaxshi taraqqiy etadi. Tarixiy jarayonda tashkilotchilik an'analari keng rivoj topgan xalqlar ham yuksak sivilizatsiyaga erisha olishgan.

Tarixda ajdodlarimiz o'zining tashkilotchiligi tufayli vatanimizda eng ilg'or madaniyat yaratib, jaxon sivilizatsiyasida o'zining munosib o'rnini topa olgan.

Davlat boshqaruvida xon, amir, bek, shoh, podsho va hokimlarning hamda keng xalq ommasi orasida oqsoqolm o'nboshi, yuzboshi, mingboshilarning faoliyati katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Forobiyning fikriga ko'ra, kasblarning "raisa"lari to'rtta bo'lib, avval dehqonchilik, ikkinchi to'quvchilik, uchinchi bannolik (binokorlik), to'rtinchisi saislilik (siyosat yurituvchi, boshqaruvchi, tashkilotchi) hisoblanadi. Bundan ko'rinadiki, tashkilotchilik qadimda alohida kasb sifatida e'tirof etilgan va qadrlangan.

Bizning ajdodlarimiz ichida shunday rahbarlar (Amir Temur, Bobur kabi) tashkilotchilar bo'lganki, ular nafaqat o'z xalqi, balki butun insoniyat ravnaqi uchun o'z xissalarini qo'sha olgan.

Tarixiy tajriba bizlarni quyidagi ishlarni amalga oshirmoqqa undaydi:

- Ajdodlarimizning tashkilotchilik an'analarini chuqur o'rganish va undan ijodiy foydalanishni;
- Zamonaviy jahon yutuqlarini o'zlashtirishni;
- Tashkilotchilik ilmi va amaliyoti bilan jiddiy shug'ullanishni.

"Tashkilotchilik" arabcha "tashkilot" so'ziga ot yasovchi "chi" qo'shimchasi, so'ng esa shakl yasovchi "-lik" qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilingan so'zdir. "Tashkil so'zining o'zagi "shakl" bo'lib, u "tuzish", ma'lum "bir holatga keltirish" degan ma'noni bildiradi. "Tashkilot" so'zidagi "-ot" qo'shimchasi arab tilida ko'plik otini yasaydi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bu so'z ijtimoiy jamoa, siyosiy birlashma, xo'jalik, birlashma, muassasa kabi so'zlarni ifodalaydi. Rus tilidagi "организация" so'zi o'zbek tiliga "tashkilot" tarzida tarjima qilingan.

Demak, "TASHKIL ETISH" – tarkibiy qismlaridan butunlik hosil etmoq, yaxlitlikni barpo qilmoq, butunlikni yuzaga keltirmoq, uyushtirmoq, tuzmoqdir. Mazkur ishlarni bajaruvchi shaxs yoki guruh "tashkilotchi" sifatida namoyon bo'ladi.

“Tashkilotchi” atamasi quyidagi ma’nomalarni anglatadi:

- Tashkil qiluvchi, uyushtiruvchi, tuzuvchi;
- Harakatni boshlab beruvchi, ish, tadbir uyushtiruvchisi;
- Tashkilot, muassasa, idora, uyushma tashkil etuvchi yoki biror tashkilotni tuzib, unga boshchilik qiluvchi;
- Tarkibiy qismlardan butunlikni yuzaga keltiruvchi, kerakli g’oya, bilim, tajriba, usul, vosita, shakl va boshqa imkoniyatlardan foydalanib, yakuniy butunlik hosil qiluvchi;
- Tizim elementlarini tartibga solish va muvofiqlashtirish bilan shug’ullanuvchi boshqaruvchi.

Tashkilotchilik so’zi “tashkilotchilik madaniyati” birikmasining lug’aviy ma’nosini tushunishga yo’l ochadi.

Tashkilotchilik hayotning qaysi sohasida bo’lmasin, uni madaniyatsiz tasavvur etish qiyin. Shuning uchun tashkilotchilik va madaniyat bir-biriga juda zarur atamalar. Biroq ularni qo’shish natijasida asosan uch atamaga duch kelamiz: “Tashkilot madaniyati”, “Madaniy tashkilotchilik” va “Tashkilotchilik madaniyati”. Ularning ma’nosi bir xil emas.

“Tashkilot madaniyati” deyilganda – muayyan tashkilotga mos madaniyat tushuniladi. Ijtimoiy, xo’jalik birlashmasi, davlat va jamoa muassasalari (masalan: boshlang’ich tashkiloti, ijtimoiy tashkilotlar, kasaba uyushmalari, sanoat, sog’liqni saqlash, savdo tashkilotlari va hokazolar) o’z vazifasi qanday bo’lishdan tashqari keying davrda madaniyatga alohida e’tibor berilmoqda. Yirik tashkilotlar o’z binolarining tashqi va ichki ko’rinishiga zeb berishmoqda, ish mazmuniga xos ramzlar, madaniy qiyofa, an’analar, tadbirlar, maxsus liboslar, mahsulot dizayniga ega bo’lishga intilishmoqda. Bu tashkilotlar faoliyatda madaniy qadriyatlar o’ta muhim o’rin tutayotganligidan dalolat beradi.

“Madaniy tashkilotchilik” – madaniyat sohasidagi tashkilotchilik madaniy faoliyat, tadbirlarni tashkil qilishni nazarda tutadi. Ular (qishloq xo’jaligi, chorvachilikdagi texnikadagi tadbirlardan farqli) madaniylashgan, ruhiy, badiiy-

ommaviy, hordiqiy muhitda uyushtiriladi. Texnika, qishloq xo'jaligi va chorvachilik tadbiri ish jarayoning muhim qismi sifatida tashkil qilinsa, madaniy tadbirlar hayotdagi muhim hodisalarga bag'ishlanib, ko'proq aholining bo'sh vaqtida, madaniy dam olish shakli sifatida uyushtiriladi. Madaniy sohani tashkillashtirish deganda, odatlar, marosimlar, tomosholar, o'yinlar, to'ylar, sayillar, namoyishlar, tantanali kechalar, festivallar, olimpiadalar, dekadalar, yubileylar kabi ko'plab shakllarni uyushtirish nazarda tutiladi.

“Tashkilotchilik madaniyati” deyilganda esa tashkilotchi faoliyatini uyushtirish mahorati, san'ati, jamiyatning barcha (ijtimoiy, iqtisodiy, ishlab chiqarish, savdo va hokazo) sohalarida hayotiy ehtiyoj asosida maqsadga erishish uchun kerakli vosita, usul, choralar majmuidan foydalanish madaniyati tushuniladi.

Madaniy tadbirlarni tayyorlash jarayoni.

Madaniy tadbirlar dramaturgiyasi (ssenariysi)

Madaniy-ommaviy tadbirlarni tayyorlash – bu ijodiy jarayon bo'lib, ikki qismdan tashkil topadi:

1. Dramaturgiya asosini (ssenariyni) yaratish.
2. Asarni postanovka qilish (rejissurani amalga oshirish).

Biroq, bu jarayonni san'at muassasalarida (teatr, kinomatografiyada) bimalol yaxlit ikki qismga bo'lish mumkin bo'lsa, madaniy-ommaviy tadbirlar tayyorlashda esa faqat shartli ravishda ikkiga bo'linadi. Chunki teatrda va kino san'atida ularning dramaturgiyasi adabiyotning muhim bir turi sifatida shakllanib, alohida asar sifatida ham keng omma tomonidan o'qilishi mumkin, madaniy-ommaviy tadbirlar dramaturgiyasi esa faqat bir maqsad uchun – amaliy tashkil qilish uchun yaratiladi, lekin alohida, keng omma tomonidan o'qilmaydi. San'at muassasalarida dramatik asar qachon yozilganidan qat'iy nazar, lozim topilganda, zamonaviy talablar javob beradigan bo'lsa, sahnalashtirish yoki ekraklashtirish mumkin. Ommaviy tadbir ssenariysi esa, belgilangan sanaga asosan yozilib bo'linganidan keyin darhol namoyish qilish uchun ishlatiladi.

Shuning uchun ham madaniy-ommaviy tadbirlar dramaturgiyasi va rejissurasi bir butun jarayondir. Aniqrog'I, bir jarayonning bir-biri bilan ajralmas ikki tomonidir. Madaniy-ommaviy tadbirlarni tayyorlashda eng muhim jarayon – uning rejalashtirilishidir. Ma'lumki, madaniyat muassasalaridagi barcha tadbirlar yillik, choraklik va oylik rejalarda o'z aksini topadi. Ularga binoan ma'lum ish boshlanadi va oxiriga yetkaziladi. Har bir tadbirni tayyorlash jarayonning umumiy rejasini madaniy muassasa qoshida ishlab turgan madaniy(yoki badiiy) kengash tuzadi va bu ishga umumiy rahbarlik qiladi.

Madaniy (badiiy) kengash o'zining (har-oyda yoki 15 kunda 1 marta bo'ladigan) yig'ilishida 2-3 oydan keyin uyushtiriladigan tadbirni tayyorlash masalalarini ko'rib chiqadi. Masalan, 9-May – Xotira va qadrlash kunida tashkil qilinadigan teatrlashtirilgan madaniy kompozitsiyasini o'tkazish madaniy kengash mart oyida ko'radi va umumiy ish jarayoning rejasini ishlab chiqadi.

9-May – Xotira va qadrlash kunida tashkil qilinadigan tadbir rejasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- 5-martdan – 5-aprelgacha ssenariy yaratildi.
- 7-aprelda ssenariy muhokama qilinadi.
- 9-apreldan – 4-maygacha tashkilotchi(rejissyor) tadbirni postanovka qiladi.
- 6-may tadbir ko'rigi va muhokamasi.
- 9-may soat 16:00 da tadbir namoyish qilinadi.

Madaniy (badiiy) kengash yig'ilishida oldindan belgilangan tadbir uchun javobgar shaxslar – ssenariy muallifi va rejissyor tasdiqlanadi.

Madaniy kengash tadbir tayyorlash jarayonida bu ishga uch marta o'z diqqatini jalb qiladi:

1. Tadbir o'tkazish jarayonini rejalashtirishda va javobgar shaxslarni tanlashda.
2. Ssenariyni muhokama qilishda.
3. Tadbir namoyish qilishdan oldin uni ko'rikdan o'tkazishda.

Tadbir uchun asosiy javobgar shaxslar – ssenariy muallifi va rejissyor birgalikda, umumiy reja asosida har bir kishiga taaluqli ishlarning rejalarini, ish kundaliklarini tuzadi.

Madaniy-ommaviy tadbirlar tayyorlash jarayoni haqida soʻz yuritar ekanmiz, avval uning dramaturgiyasi (ssenariysiga) diqqatimizni jalb qilamiz.

Teatr sanʼatining asosi (pyesa) boʻlganidek, madaniy-ommaviy tadbirlar negizida ssenariy yotadi. Ssenariy – italyancha soʻz boʻlib, asarning sxemasi, plani-rejasi degan tushunchani bildiradi. Madaniy-ommaviy tadbirlar ssenariysi – bu keng maʼnoda hayotiy va hujjatli materiallarning badiiylashtirilgan adabiy-publitsistik shakli demakdir.

Ssenariy – bu tadbirni yaratish uchun asosiy adabiy manba boʻlib, unda asarning mazmuni, kompozision tuzilishi aks ettiriladi. Shuningdek, ssenariyda tadbir oʻtkaziladigan joy (zal, sahna, maydon, stadion)ning bezatilishi, qatnashchilar soʻzlarining matnlari, madaniy va hujjatli materiallar, foydalaniladigan taʼsirchan vositalar bayon qilinadi.

Ssenariyning puxta boʻlishi boʻlajak tadbirning eng asosiy yutuqlaridan biridir. Boʻsh yozilishi esa, tadbirni mexanik qismlar umumlashmasiga, yagona syujetning buzilishiga, gʻoyaviy mazmunning toʻla yoritilmasligiga olib keladi. Shuning uchun ham madaniy-maʼrifiy ishlar xodimi ssenariy yozishda professional mahoratga ega boʻlishi kerak.

Madaniy-maʼrifiy muassasalarida ommaviy tadbirni tayyorlash jarayoni bilan mutaxassisning bir oʻzi shugʻullanadi. Bunday holatda u ham tadbir ssenariysini yozadi, ham uni postanovka qiladi. Bu murakkab jarayon bilan odatda, “ommaviy ishlar boʻyicha metodist – tashkilotchi” vazifasida ishlayotgan mutaxassislar shugʻullanishadi. Lekin, koʻpincha, katta tadbirni tayyorlashda ssenariyni yozishga adabiyot bilan shugʻullanuvchi, bu ishda yaxshi malakaga ega boʻlgan ijodkor taklif qilinadi. U metodist-tashkilotchi yordamida yoki u bilan hamkorlikda tadbirning adabiy negizini – ssenariyni yozishga kirishadi.

Ssenariy yozish bilan kim shug'ullanmasin, u quyidagi layoqatlarga ega bo'lmog'I lozim: a) ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotni, mahalliy aholi mehnati va turmushini chuqur tushuna oladigan hamda uni to'g'ri tahlil qila oladigan shaxs bo'lmog'I; b) adabiyotda, dramaturgiya sohasida fundamental bilimga ega, undan samarali foydalana oladigan kishi bo'lishi; v) hayotiy materiallarni, hujjatli faktlarni yig'a oladigan, ularni adabiy-badiiy shaklda bayon qila biladigan ijodkor bo'lmog'I lozim.

Eng muhimi, ssenarist hayotiy va adabiy materiallardan foydalanib, badiiyat qonuniyatlari asosida, o'z g'oyasiga, mazmuniga ega bo'lgan yangi asarni yarata oladigan ijodkor bo'lmog'i lozim.

Tadbir ssenariysi yaratuvchi shaxs asarni o'z vaqtida talabga javob beradigan qilib yakunlashi uchun butun ijodiy ish jarayonini qat'iy rejalashtirishi kerak.

Ssenariy yaratishdagi kundalik ish jarayoni quyidagicha bo'lish mumkin:

- 5-10-mart – tadbir mavzusini, g'oyasini aniqlash, ssenariy mazmunini belgilash, uning taxminiy kompozitsiyasini tuzish;
- 10-20-mart – ssenariy yaratish uchun zarur hujjatli, hayotiy va badiiy materiallar to'plash;
- 20-30-mart – ssenariyning xomaki nusxasini qog'ozga tushirish;
- 1-3-aprel – ssenariyni tugallab, muhokama qilish uchun badiiy kengash a'zolariga topshirish.

Ish boshlashdan avval bo'lajak tadbirlarning g'oyaviy-tematik asosini chuqur o'ylamoq lozim. Eng muhimi, ssenariy asosida muhim ijtimoiy va mahalliy aholining hayotiga yaqin bo'lgan qiziqarli mavzu yotishi kerak.

Mavzu – bu fikr-mulohaza yuritish uchun tanlangan ob'yekt, hayotning ma'lum masalalari, muammolari. Odatda, tadbir biron sanaga bag'ishlab uyushtirilayotganda, uning umumiy mavzusi o'z-o'zidan vujudga keladi. Masalan, 8-Mart kuni tashkil qilinadigan tadbir albatta xotin-qizlar mavzusini to'liq yoritib bo'lmaydi. Shuning uchun umumiy temani har doim konkretlashtirib, uning muhim va qiziqarli bo'lagiga diqqatni jalb qilmoq lozim. 8-Martga bag'ishlangan tadbirga

konkret mavzu sifatida xotin-qizlarning o'tmishi, qahramon onalar hayoti yoki mexanizator qizlarning mehnati asos bo'lishi mumkin.

Mavzu aniqlangach, g'oya, ya'ni tadbir nima maqsadda o'tkazilayotganligi haqida o'ylashi lozim.

G'oya – bu tadbirda ilgari suriladigan asosiy ijtimoiy fikr, maqsaddir. Nimaga chorlash, nima uchun kurashga chaqirish, maqsadning nimaligi g'oyada ifodalanadi. G'oya tadbirning oxiridagina oydinlashishi kerak. Shunga erishish lozimki, tadbir davomida tomoshabinlar ijtimoiy g'oya haqida, uning asosiy fikri haqida o'ylasin, unga qizishi ortsin. Amalda esa ko'pgina tashkilotchilar g'oyani tayyor ko'rinishda, tadbirning boshlanishidanoq aytib qo'yishadi. Bu esa tomoshabinning tadbirga bo'lgan qiziqishini kamaytiradi, tadbir qimmatini pasayadi. Mavzu va g'oya aniqlangandan keyingina ssenariy plani tuziladi. Ssenariy plani esa tadbir mavzui va g'oyasi asosida vujudga kelgan mazmun tarzida shakllanadi.

Mazmun – bu asarning umumiy ma'nosi, mag'zi. Tadbir mazmunning voqealar zanjiri, u voqea harakatlarida rivojlanadi. Masalan, “Shonli yillar” nomli xronika kechasi mazmunida mustaqillikning birinchi kunidan hozirgi davrgacha bo'lgan voqealar yoritilishi mumkin. Agar biz tadbirda mamlakatimizda bo'lgan hamma voqealarga to'xtaladigan bo'lsak, unda juda ko'p vaqt talab etiladi. Shuning uchun diqqatni eng muhim voqealarga jalb qilib, ularni yoritish lozim. Har bir tarixiy voqeani tadbirning bir epizodida aks ettirish mumkin. Epizodlardan tuzilgan voqealarni esa yagona mazmun “zanjir”ga bog'lash kerak. Har qanday madaniy asar mazmunining mag'zi bo'lib xizmat qilgan yutuqlar bilan birga qiyinchiliklarni ham tadbirda chetlab o'tib bo'lmaydi.

Har doim ham konflikt (qarama-qarshilik) asosida antogonistik kuchlar to'qnashuvi yotadi, deb o'ylash to'g'ri bo'lavermaydi. Qarama-qarshiliklar ba'zan murakkab mehnat faoliyatida, u yoki bu maqsad yo'lidagi qiyinchiliklarda ham paydo bo'lishi va o'sishi mumkin. Ko'pgina kechalarda qarama-qarshiliklar xalqimizning ijtimoiy hayotini yaxshilash borasidagi kurashda, qiyinchiliklar, kamchiliklarga

qarshi kurashda o'z aksini topadi. Mazmun va konflikt aniq tanlangandan keyingina ssenariy materiallarni to'plashga kirishish kerak.

Ssenariy temasida respublika ahamiyatga molik muhim voqealar, hujjatli materiallar bilan birga hayotdan olingan faktlardan foydalanish talab etiladi. Tadbirlarning asosini davrning muhim muommoli masalalar, mahalliy faktlar tashkil etishi va u mehnatkashlarning bilim doiralarini, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilmog'I kerak.

Bugungi tajriba shuni ko'rsatadiki, mahalliy materiallar foydalanib, muayyan jamoaning hayoti, ularning mehnat yutuqlari, madaniyat, sport sohasidagi faoliyatlarini yoritgan tadbirlargagina qiziqish kuchli. Shuning uchun ssenarist mahalliy joining turmush sharoitlarini, aholining urf-odatlarini hada tadbirga keluvchilarning xarakterini yaxshi bilishi lozim.

Ssenariyda maxsus hujjatlardan: buyruqlar, nizomlar, xatlar, kundaliklar, shaxsiy, oilaviy albomlardan, fotohujjatlar, davlat va shaxsiy arxiv materiallaridan foydalanish mumkin. Bu yerda yana ssenariyda yoritilayotgan voqealarga aloqador yozib olingan yutuqlar yoki tarixiy voqealar qatnashchilarining xotiralari ham muhim rol o'ynaydi.

Kompozitsiya – bu asar qismlarning tuzilishi, mantiqiy joylanishi va ularning o'zaro bog'lanishi.

Tadbir kompozitsiyasi – dramaturgiya qonuniyatlari asosida asar voqealarini bir-biri bilan bog'lovchi harakatlar tuzilishidir. Teatrlashtirilgan tadbirlarning kompozitsion tuzilishi muqaddima, tugun, asosiy harakat, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim kabi komponentlarni o'z ichiga oladi.

Muqaddima – asarning boshlanish qismi, dastlabki tushuntirish beradigan debochasi, tadbirning kirish qismi, asosiy voqealarga olib boradigan ko'prik. U yuqori emotsional kayfiyatda o'tib, tomoshabin diqqatini tadbirga yig'adi. Muqaddimada ta'sirchan she'rlar, filmdan parchalar, musiqa asarlari, ba'zi hollarda hujjatli materiallar, yozib olingan ovozlardan tashkil topishi mumkin. Muqaddima tadbir boshlanishi bilan faqatgina sahnada emas, balki teatrlashtirilgan ko'rinishda

bino foyesida yoki kirish yo'lakchasida boshlanishi mumkin. Hozirgi zamon mehnat qahramonlariga bag'ishlangan ba'zi bir portret kechalarida muqaddima quyidagicha bo'ladi. Musiqachilar sahnaga ikki tomondan chiqib keladi. Bu paytda kirish yo'lakchasidan tadbir qahramonlari ko'rinadi. Zal ularni tantanali kutib oladi. Ular sahnaga ko'tariladilar. Milliy libosdagi qizlar ularga gullar taqdim etadilar.

Muqaddima tomoshabin diqqatini asosiy harakatlar bo'layotgan joyga qaratadi. Muqaddima ramziy-badiiy shaklda o'tsa, u yanada ta'sirchan bo'ladi.

Tugun – asarda voqeaning rivojlanishiga sabab bo'lgan voqea-hodisa, ya'ni tadbir xarakterining boshlanishi, tomoshabinning bevosita fikri va his-tuyg'usining ma'lum bir jumboqqa qaratilishi.

Final – asarning yakuni, oxiri eng muhim qismi. (Finalni ba'zi hollarda “yechim” yoki “epilog” deb ham atashadi.).

Yechimning yaxshi tugallanmasligi tomoshabin his-tuyg'ularining susayishiga, asar qimmatining pasayishiga olib keladi. Yechim ba'zi hollarda butun ijrochilarning sahnaga ommaviy chiqishlarida, jamoa bo'lib qo'shiq aytishlarida, birgalikda murojaatnoma qabul qilishlarida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, biz madaniy-ommaviy tadbirlar ssenariysini yaratilish jarayonining umumiy qonun-qoidalariga to'xtalib o'tdik. Lekin shuni unutmaslik kerakki, ssenariy har doim ma'lum bir sanaga bag'ishlanib, muayyan aholi, konkret auditoriya, asosan bir marotaba tashkil qilish uchun yoziladi. Shu sababli unda mahalliy xususiyatlar, tadbir o'tkaziladigan joy imkoniyatlari, moddiy va texnik vositalar mavjudligi, tashkilotchilar va havaskorlar ijodiy kuchi, shuningdek, aholining ehtiyoji va qiziqishlari hisobga olinishi shart.

Madaniy-ommaviy tadbirlar rejissurasi

“Rejissyor” tushunchasi fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, boshqaruvchi degan ma'noni bildiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, “rejissyor” so'zi O'zbekistonga XIX asr oxiri – XX asr boshlarida paydo bo'lgan. Lekin bu bilan qadimiy o'zbek xalq tomoshalari va bayramlarini tashkilotchisi, ya'ni rejissyori bo'lmagan, deyish

xato bo'lar edi. O'zbek madaniyatiga "rejissyor" tushunchasi kirib kelgunga qadar "korfarmon" degan so'z ishlatilgan.

"Korfarmon" so'zining ma'nosi ishga farmon beruvchi, ya'ni ishboshi, demakdir. Darhaqiqat, "korfarmon" – o'ziga xos ishboshi - administrator, rejissyor, muallim, o'yin boshidir – deb yozadi professor Muhsin Qodirov.

Bugungi kunda rejissyor tushunchasi barcha xalqlar madaniyatida ishlatilganidek, o'zbek san'atida ham keng qo'llanmoqda. Hozirgi paytgacha rejissyor deganda ko'proq, teatr va kino san'atida madaniy asarni sahnalashtiruvchi, ekranlashtiruvchi ijodkor tushuniladi. Keyingi vaqtlarda, radio va televideniya rejissyor mutaxassisligi bilan bir qatorda madaniy-ma'rifiy muassasalarida ham ommaviy tadbirlarni tashkil qiluvchi rejissyor shakllanmoqda. Madaniy-ommaviy tadbirlar rejissyori deganda, muhim sana va voqealarga bag'ishlab yozilgan ssenariyni mahalliy sharoitda madaniy-hujjatli qonuniyatlar asosida, maxsus ish shakllarida amaliy uyushtiradigan ijodkor tushuniladi.

Ommaviy tadbir rejissyori real hayotning muhim, diqqatga sazovor daqiqalarini madaniylashtiradi, badiiy bezaydi va maxsus tadbir sifatida shakllantiradi. Qaysi san'at turi bilan shug'ullanishdan qat'i nazar, rejissyorlarning hammasiga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar mavjud. Rejissyorlarning ijodi ularning yuksak insoniy, madaniy, axloqiy xususiyatlariga hamda dunyoqarashi, bilimi va professional qobiliyatlariga bog'liqdir. Rejissyorlar umumiy fazilatlarga ega bo'lishi bilan birgalikda, shug'ullanayotgan sohalari talab qilgan xususiyatlarga va layoqatlarga ham ega bo'lmog'i lozim. Bu har bir sohaning (teatr, kino, televideniya) rejissurasining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Jumladan, madaniy-ommaviy tadbirlar rejissurasining ham xuddi teatr, kin ova televideniya rejissurasidek o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

V.I.Nemirovich-Danchenko rejissyorlarning quyidagi fazilatlarga ega bo'lishini ta'kidlagan edi:

1. Rejissyor (tolkovatel) – tushuntiruvchi, asarning g'oyasini, maqsadini, madaniy obrazning talqinini to'g'ri va mantiqli tushuntirishni bilishi kerak.

2. Rejissyor (zerkalo) – oyna, aktyorlarning individual xususiyatlarini, ijodini to'g'ri aks ettirishni bilmog'I kerak.

3. Rejissyor (organizator) – tashkilotchi, butun spektaklni uyushtirishi kerak.

Albatta, Nemirovich-Danchenko ta'riflagan bu fazilatlar, asosan, teatr rejissyorlariga mansubdir. Shunga qaramay, ular ommaviy tadbirlar rejissyoriga ham tegishli, bunda o'ziga xos tartib va xususiyat bilan namoyon bo'ladi.

Madaniy-ommaviy tadbirlarning mohiyatidan va xususiyatlaridan kelib chiqilganda, ularning rejissyori tashkilotchi (jumladan, administrator ham), shu bilan birga, bosh ijodkor va qonuniy ravishda pedagog bo'lmog'I lozim.

Rejissyor – tashkilotchi. Madaniy – ma'rifiy xodimda tashkilotchilik layoqati bo'lmasa, undan yaxshi mutaxassis chiqishi qiyin. Agar ommaviy ishlar rejissyorida tashkilotchilik qobiliyati bo'lmasa, hech qachon yaxshi tomosha, ya'ni tadbir uyushtira olmaydi. Ommaviy tadbirlar rejissyori uchun tashkilotchilik qobiliyati eng asosiy fazilat hisoblanadi. Chunki u san'at muassasalarining professional rejissyorlarga qaraganda murakkab sharoitda, maxsus malakaga ega bo'lmagan havaskorlar bilan ish olib boradi.

Madaniy-ommaviy tadbirlar rejissyoridagi tashkilotchilik qobiliyatining administrativlik va boshqaruvchilikdan iborat ikki tomoni kuchli namoyon bo'lishi kerak.

Rejissyor tadbirning tashkilotchi – administrator sifatida juda ko'p ishlarni bajaradi. Agar professional teatr, kinostudiya, televideniye va radioda administrative (ma'muriy) ishlarni maxsus tayinlangan kishilar olib borishsa, madaniy-ma'rifiy muassasalarda esa ommaviy tadbir rejissyori ular bajaradigan fazilatlarni o'z zimmasiga oladi.

San'at muassasalarida mavjud bo'lgan maxsus professional ijodiy guruh, maxsus madaniy va texnik vositalar, fonotekalar, ovoz yozish va nurli apparatlarga ega sexlar, butafor, rekvizit, kostyumerlar, dekorosiya tayyorlanadigan ustaxonalarga klub va parklar ega bo'lmaydi.

Ommaviy tadbirlar rejissyori vujudga kelishi mumkin bo'lgan barcha muammolarni yechish uchun yo'l-yo'riq topa bilishi kerak. U lozim bo'lsa, havaskorlar tadbirda qatnashishi uchun barcha sharoitni tayyorlashi, texnik apparatlarni axtarishi, badiiy ustaxonalar bilan shartnoma tuzib dekoratsiya, butaforiyani hozirlashi, kostyumlarni topishi va ko'plab shunga o'xshash ishlarni amalga oshirishi lozim. Albatta bunday sharoitda tadbirni tayyorlash va mavjud muammolarni bartaraf qilish uchun rejissyorda administrative qobiliyat nihoyatda kuchli bo'lmog'I lozim. Aks holda, tadbir tashkilotchisi yaxshi natijalarga erisha olmaydi.

Tadbir tayyorlash jarayonida rejissyorning boshqaruvchilik layoqati alohida o'ringa ega. Chunki tadbir odamlarning ishtiroki bilan vujudga keladi va odamlar uchun tayyorlanadi. Agar rassom bo'yoq, xolst (mato) va polotno bilan, arxitektor har xil granit toshlar va cho'kich bilan, yozuvchi so'zlar bilan, kompozitor ohang va notalar bilan ijod qilsa, tadbir rejissyorni kishilar bilan va ularning yordamida madaniy tomoshaviy shakl yaratadi.

Xulosa

Bitiruv malakaviy ishimning so'nggi so'zida, har qanday tadbirlar yoshlarning vaqtini bekorga sarflamaslikka, chetdagi yomon illatlardan uzoqlashtirishga, Vatanizmizning moddiy va ma'naviy boyliklariga alohida e'tibor berishliklarini, to'g'ri yo'ldan adashmaslikni olib borsa, bu bizning yutug'imizdir. Yoshlar tarbiyasiga har qanday madaniy tadbir o'ziga yarasha alohida ta'sir ko'rsatadi. Yoshlar tarbiyasi yetuk va barkamol bo'lsa, unda vatanimizning kelajagi ham albatta porloq bo'ladi. Biz yoshlarga to'g'ri tarbiya berib, avvalambor, oiladan boshlashimiz kerak. Agar oilani biz bir daraxtning ildizi deb hisoblasak, yoshlar o'sha daraxtning mevasi hisoblanadi. Biz barcha e'tiborimizni daraxtning mevasiga bersak, uni parvarishlab, har qanday yomon narsalardan himoya qilsak ham, daraxtning ildizi chirigan bo'lsa, o'sha daraxt hech qachon meva bermaydi. Shuning uchun biz, yoshlarning tarbiyasi to'g'ri bo'lishi uchun, ularning bo'sh vaqtini iloji boricha to'g'ri va foydali narsalarga sarf qilishlarini o'rgatishimiz, yo'l ko'rsatishimiz zarur deb o'ylayman. Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek: San'at va madaniyatdek qudratli kuch orqali inson qalbiga yo'l toppish haqida so'z yuritar ekanmiz, hammamiz yaxshi tushunamizki, har qaysi iste'dod egasi o'ziga xos biro lam, shu sababli ijod ahliga qandaydir aql o'rgatish, eng asosiysi, ularni boshqarishga urinish mumkin emas. Lekin bu hayotda ularni birlashtiradigan, yangi ijodiy marralar sari ilhomlantiradigan muqaddas tushunchalar borki, ular Vatan va xalq manfaati, ezgulik va insoniylik tamoyillari bilan uzviy bog'liqdir. Agargi har qaysi ijodkor, o'z asarlarida ana shu o'lmas g'oyalarni bosh maqsad qilib qo'ysa, ularni badiiy mahorat bilan ifoda eta olsa, hech shubhasiz, adabiyot ham, madaniyat va san'at ham tom ma'noda ma'naviy yuksalishga xizmat qilib, o'zining ijtimoiy vazifasini to'liq ado etishga erishgan bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurasha olishi

mumkin. Nafaqat davlat rahbari, avvalambor, buyuk tarix, madaniyat va ma'naviyat egasi bo'lgan xalqimizning bir farzandi sifatida, ana shu bebaho boylikni asrab-avaylash, uni har xil oshkora va pinhona hujumlardan himoya qilish haqida qayg'uradigan bir inson sifatida yuqorida zikr etilgan o'ta muhim va o'ta nozik bu masalalar meni ham ko'pdan buyon o'ylantirib keladi.

Agargi biz bunday xatarlarga qarshi o'z vaqtida va izchillik bilan kurash olib bormasak, turli zararli oqimlar bizning yurtimizga ham shiddat bilan yopirilib kirishi, yoshlarimizni o'z girdobiga tortib ketishini, oqibatda ularning ota-ona, oila, el-yurt oldidagi burchi va mas'uliyatini o'ylamaydigan, faqat bir kunlik hayot bilan yashaydigan xudpisand kimsalarga aylanib qolishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Mana shu achchiq haqiqatni yurtimizdagi har bir inson, har qaysi ota-ona, eng muhimi, har qaysi yigit-qiz chuqur anglab olishini istardim.

Takror aytishga to'g'ri keladi – ota-onalar, uztoz-murabbiylar bu masalada hushyorlikni yo'qotmasligimiz, yoshlar tarbiyasida aslo beparvo bo'lmasligimiz zarur. Agarki mendan, hozirgi kunda ma'naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimani qarshi qo'yish kerak, deb so'rasa, men avvalambor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishi, bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashi zarur, deb javob bergan bo'lardim.

Ishonchim komilki, ana shunday noyob insoniy fazilatlarga, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan xalq hech kimga hech qachon qarab bo'lmaydi, o'zining ezgu maqsadlariga albatta yetadi.⁵

⁵ I.Karimov. *“Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” 11-bet*

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. **Usmon Qoraboyev** – Madaniy tadbirlar. 2005-yil. Toshkent.
2. **Usmon Qoraboyev** – Madaniyat masalalari. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi: Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2009-yil.
3. **Mavrulov .** – Barkamol barkamol inson tarbiyasi. “O‘zbekiston”. Toshkent. 2008-yil.
4. **Islom Karimov** – “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” 2008-yil. Toshkent. “Ma’naviyat”. Muqaddima.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014yil 06 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2124-sonli qarori.